

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI
OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI**

«TASDIQLAYMAN»



Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Andijon filiali direktori

G.A.Turaxodjayeva

2025 y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

**“ DAVOLASH -PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA AKUSHERLIK VA
GINEKOLOGIK YORDAM KO'RSATISH”**

malaka oshirish

ISHCHI O'QUV DASTURI

(o'qish hajmi – 144 kredit)

Andijon – 2025 yil

TUZUVCHILAR:	
Ya.A.Satimova	Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali akusherlik fani o'qituvchisi
Z.S.Xayitboyeva	Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi
TAQRIZCHILAR:	
D.A.Parpiyeva	Andijon Davlat Tibbiyot Oliygoxi akusherlik va ginekologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.
N.M.Axmedova	Andijon Davlat Tibbiyot Oliygoxi akusherlik va ginekologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

«03» yanvar 2025y.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi:



G.A. Turaxodjayeva

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

«04» yanvar 2025y.

bayonnoma № 1

Uslubiy kengash raisi:



D. Gapparova

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saklash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i ijrosini ta’minlash, JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, yo‘riqnomalar bilan ishlashda modul tizimi asosida ishlab chiqilgan dasturdir. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Ishchi o‘quv dasturi “Davolash-profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish” yo‘nalishining 2021 yilda tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (akusherka va ginekologiya bo‘limlari hamshiralari, feldsherlar)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida “Davolash-profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, kasbiy darajasini oshirish va yangilash asosida, ularda o‘smirlar, fertil yoshdagi ayollarni reproduktiv salomatligini saqlash, homiladorlik davrida antenatal kuzatuv va tibbiy yordam ko‘rsatish, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi parvarishni tashkil qilish, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish, ginekologik kasalliklarda bemorlarni parvarish qilish qobiliyatini kuchaytirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va statsionar sharoitida kasalliklarni tashxislash va bemor hayotiga xavf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy

ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash. Shu bilan bir qatorda ularga akusherlik ishining mohiyati, normativ- xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli akusherlik yordamini ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

1.2. Vazifalar.

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- homilador ayollarni ratsional ovqatlanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash, ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashda yo'naltirilgan samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishlash;
- ona sutining ahamiyati, sog'lom va patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash, 6 oygacha bo'lgan bolalarning istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash;
- birlashtirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarini erta aniqlash va xavfsiz muhitni yaratish;
- ayollar jinsiy a'zolarining kasalliklarini sabablari, tashxislash va davolash borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- ayollarni zamonaviy laborator va instrumental tekshiruvlar o'tkazish uchun tayyorlash ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- ayol jinsiy a'zolari xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni takomillashtirish
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda tekshirishga tayyorlash, ayol hayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish.
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha OP, OSHP, tug'ruq komplekslari va perinatal markazlarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini **tasdiqlovchi hujjati** bo'lgan akusherka, ginekologiya bo'limlari hamshiralari va feldsherlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalariasoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;

- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda akusherlik faoliyatini amalga oshirish;
- fertil yoshdagi ayollarga kompleks yordam ko'rsatish;
- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida akusherlik yordamni tashkil etish;
- ona va bola salomatligini saqlash bo'yicha direktiv hujjatlarni o'rganish, meyoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- aholining reproduktiv salomatlik holatini taxlil qilishi;
- aholi reproduktiv salomatligini saqlashda profilaktik tadbirlarni tashkil etish;
- reproduktiv salomatlik, nikox gigiyenasi, xomilador ayolni tug'ruqqa tayyorlash masalalarida maslahatlar berishni;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigiyenik, profilaktik, rehabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- normal tug'ruq jarayonida tug'uvchi ayolga akusherlik parvarishini ko'rsatish, tug'ruqni qabul qilishi;
- chaqaloqni parvarishlash ko'nikmalariga ega bo'lish; chaqaloqni parvarishlash bo'yicha onalarga amaliy yordam berish;
- akusherlik va ginekologik bemorlar xolatini baholash, asosiy simtom va sindromlarni ajratish, akusherlik qon ketishida, og'ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish, vrachgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralarini qo'llash, «Sog'lom avlod», «Ona va bola» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 8.30 da boshlanib, 13.10 da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Davolash-profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- so'rov o'tkazish, jismoniy ko'rikdan o'tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy xujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashga yo'naltirilgan hamshiralik jarayoni, samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishni olib borish;
- ruhiy muammolari, ekstragenital kasalliklari aniqlangan ayollarga homiladorlikning kechishi va tug'ish jarayonida kuzatilishi mumQin bo'lgan muammolar to'g'risida ma'lumot berish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'satkichlarni tahlil etish;
- fertil yoshdagi ayollarni salomatligini mustahkamlash va bolalar salomaligini muhofaza qilishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikni samarali tashkil etish;

- homilador ayollarga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini takomillashtirish;
- ginekologik kasalliklarda qo'llaniladigan mahalliy davolash muolajalari ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- ayol jinsiy a'zolarini havfsiz, havfli va rak oldi o'sma kasalliklarini erta aniqlash bo'yicha tekshiruvlarni tashkillashtirish;
- zamonaviy kontratsepsiya usullaridan foydalanish bo'yicha maslahat berish ko'nikmasi mukammallashtirish;
- o'smirlar orasida jinsiy tarbiyani shakllantirish ko'nikmasi takomillashadi;
- jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni oldini olish chora- tadbirlar majmuasi yangilanadi;
- tug'ma va irsiy kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish (skrining) ko'nikmasi mustahkamlanadi;
- akusherlik qon ketishida, og'ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish, vrachgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalari mukammallashtirishadi.

3. DASTUR MAZMUNI.

3.1. "Davolash profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish" kursi ishchi o'quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.1.1	2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish konsepsiyasining maqsadlari vazifalari va asosiy yo'nalishlari.	2	2	-		
1.1.2	Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslari.	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari	6	2	4		

1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalarining tibbiyot sohasidagi o' rni va ahamiyati.	2	2	-		
1.2.2	Ofis dasturlari bilan tanishish va sohaga oid hujjatlar tayyorlash.	2	-	2		
1.2.3	Internet tarmog'ida ishlash,axborot qidirish ma'lumotlar bazasidan foydalanish.	2	-	2		
1.3	Modul:Sanitariya epidemiologik tartib meyorlari va infeksiyon nazorat	6	4	2		
1.3.1	Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan meyoriy hujjatlar va infeksiyon nazorat.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		
1.3.3	DPM larda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.4	Modul:Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha.Sterilizatsiya jarayoni.Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari,zamonaviy usullari. Gazli, plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi koidalari.	2	-	2		
1.5	Modul:Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko'rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari.To'g'ri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik.Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog'lom odamlarda hamda bemorlarda qo'llash metodikasi.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul:Reproduktiv salomatlik va "Bexatar onalik" masalalari.	12	6	6		
2.1.1	Reproduktiv salomatlik va «Bexatar onalik»	2	2	-		

2.1.2.	Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlashda olib borilayotgan islohotlar.	2	2	-		
2.1.3	SSVning amaldagi sohaga oid buyruqlarining mohiyati va ular bilan ishlash.	2	-	2		
2.1.4	Zamonaviy kontratsepsiya vositalari.	2	2	-		
2.1.5	Kontratsepsiya usullarini tanlashda maslahat olib borish, meyoriy hujjatlarni yuritish.	2	-	2		
2.1.6	Zamonaviy kontratsepsiya vositalarini qo'llashda akusherkaning vazifalari.	2	-	2		
2.2	Modul: Homilani antenatal parvarish qilish. Homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash va yordam berish. Universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish.	30	12	18		
2.2.1	Homiladorlik fiziologiyasi. Homiladorlikni aniqlashning zamonaviy usullari.	2	2	-		
2.2.2	Homiladorlikning I, II, III- trimestrlarida akusherlik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.2.3	Homiladorlikda to'g'ri ovqatlanish bo'yicha maslahatlar berish.	2	-	2		
2.2.4	Patologiya bilan kechadigan homiladorlikni olib borish. Homiladorlik gipertenziv sindromi. Preeklampsiya va eklampsiyada yordam ko'rsatish.	2	2	-		
2.2.5	Homiladorlar qusishi, darajalari. Akusherlik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.2.6	Homiladorlik gipertenziv sindromi. Preeklampsiya va eklampsiyada yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.2.7	Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homilador ayolda ijtimoiy, zararli odatlar xavflarni aniqlash. Universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish.	2	2	-		
2.2.8	Skrining tekshiruvining mohiyati, homilador ayol va homila holatini baholash. homiladorlik depressiyasida yordam berish	2	2	-		
2.2.9	Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida homiladorlikni kechishi, asoratlarni oldini olish.	2	-	2		
2.2.10	Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida homiladorlikni kechishi.	2	2	-		

2.2.11	Surunkali va o'tkir infeksiyalar bilan zararlangan ayollarda hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.2.12	Virusli va bakteriyali yallig'lanish kasalliklari, homilaga ta'siri, aniqlash va yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.2.13	Homiladorlik davrida qon ketish sabablari, belgilari.	2	2	-		
2.2.14	Homiladorlikni 22 haftasigacha qon ketganda akusherlik yordamini ko'rsatish.	2	-	2		
2.2.15	Homiladorlikni 22 haftasidan keyin qon ketganda akusherlik yordamini ko'rsatish.	2	-	2		
2.3	Modul: Tug'ruq. Tug'ruqda qo'llanadigan yangi texnologiyalar. Tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda akusherlik parvarishi.	24	8	16		
2.3.1	Tug'ruq. Tug'ruqda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar.	2	2	-		
2.3.2	Tug'ruqning I-II davrini olib borish. Partogrammani yuritish.	2	-	2		
2.3.3	Normal tug'ruq biomexanizmi.	2	-	2		
2.3.4	Tug'ruqning III-davrini aktiv olib borish. Yo'ldosh butunligini tekshirish.	2	-	2		
2.3.5	Erta chilla davrida qon ketish sabablari, belgilari, asoratlari.	2	2	-		
2.3.6	Erta chilla davrida qon ketganda yordam ko'rsatish algoritmi.	2	-	2		
2.3.7	Chilla davri fiziologiyasi. Tuqqan ayol organizmidagi o'zgarishlar.	2	2	-		
2.3.8	Tug'ruqdan keyin meyoriy tiklanish. Yo'riqnomalar bilan ishlash.	2	-	2		
2.3.9	Tuqqan ayolni parvarishlash. Tug'ruqdan keyin uchraydigan xavfli belgilarni aniqlash va tavsiyalar berish.	2	-	2		
2.3.10	Ko'krak sutining ahamiyati. Muvaffaqiyatli emizish tomon 11 qadam tamoyili.	2	-	2		
2.3.11	Chilla davri kasalliklari, sabablari.	2	2	-		
2.3.12	Chilla davri kasalliklarida akusherlik yordamini ko'rsatish.	2	-	2		

2.4	Modul:Sogʻlom va patologiya bilan tugʻilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib borish.Chaqaloq adaptatsiyasi. Asfiksiyada samarali reanimatsiya yordamini koʻrsatish.	6	2	4		
2.4.1	Sogʻlom va patologiya bilan tugʻilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib borish.Chaqaloq adaptatsiyasi.	2	2	-		
2.4.2	Issiqlik zanjirini saqlash.Apgar shkalasi boʻyicha baholash.	2	-	2		
2.4.3	Asfiksiyada samarali reanimatsiya yordamini koʻrsatish.AVSD qadami.	2	-	2		
2.5	Modul:Ayol jinsiy aʼzolari kasalliklari va ularda hamshiralik parvarishining zamonaviy aspektlari.	18	6	12		
2.5.1	Ayol jinsiy aʼzolarining yalligʻlanish kasalliklari. JYOYUK belgilari, sabablari	2	2	-		
2.5.2	Ayol jinsiy aʼzolarining yalligʻlanish kasalliklarida zamonaviy tekshirish usullari va ularga ayolni tayyorlash.	2	-	2		
2.5.3	Ayol jinsiy aʼzolarining yalligʻlanish kasalliklarida hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.5.4	OIV/OITS ning kelib chiqish sabablari,yuqish yoʻllari.	2	2	-		
2.5.5	Bepushtlik, sabablari, turlari, tekshirish usullari, hamshiralik parvarishi xususiyatlari.	2	-	2		
2.5.6	Bepushtlikni zamonaviy davolash usullari.	2	-	2		
2.5.7	Hayz faoliyatining buzilishlari, turlari, sabablari.	2	2	-		
2.5.8	Klimakterik yoshda ayol organizmidagi oʻzgarishlar.	2	-	2		
2.5.9	Klimakterik yoshdagi ayollar parvarishi.	2	-	2		
2.6	Modul:Ayol jinsiy aʼzolari rak oldi va fon holatlari. Ayollar jinsiy aʼzolari xavfsiz va xavfli oʻsma kasalliklari	8	6	2		
2.6.1	Ayol jinsiy aʼzolari rak oldi va fon holatlari.	2	2	-		
2.6.2.	Ayollar jinsiy aʼzolari xavfsiz va xavfli oʻsma kasalliklari,sabablari va tasnifi.	2	2	-		
2.6.3	Profilaktik koʻriklarni tashkil etish,tibbiy hujjatlarni yuritish.	2	-	2		

2.6.4	Ko'krak bezi saratonini erta aniqlashda ayolni o'z-o'zini nazorati ahamiyati.	2	2	-		
2.7	Modul:Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	4	2		
2.7.1	Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.	2	2	-		
2.7.2	Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.	2	2	-		
2.7.3	Terminal holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi .	2	-	2		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
3.1	Ko'krak suti bilan boqib emizish muammolarini aniqlash va maslahatlar berish.	4	-	-	4	
	Attestatsiya	4	-	-	-	4
	Jami:	144	60	76	4	4

“Davolash profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish ”malaka oshirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1.1.Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
O'quv moduli mazmuni:	O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari.Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati.Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari.Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini; • Respublikamizdagi milliy dasturlarning asosiy yo‘nalishlarini; • siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ayniqsa, tibbiyotga tegishli bo‘lgan Prezident farmonlarini; • 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsad va vazifalarini; • davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni; • Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha vazifalarini; • insoniy fazilatlarni shakllantirib borishi va jamoada vijdonan o‘z vazifalarini bajarish mas’uliyatini his etish; • Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni; <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyatini.</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • tibbiyotga tegishli bo‘lgan Prezident farmonlarini amaliyotga tadbqiq etish bo‘yicha yo‘l xaritalari tuzish; • jamoada vijdonan o‘z vazifalarini bajarish mas’uliyatini his etish mas’uliyatiga ega bo‘lish; • SSVning qarorlari va buyruqlarini joylarda bajarilishini ta’minlash; • Milliy qadriyatlarimizni kelajak avlodga yetkazishni ta’minlash.
<p>Adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –Toshkent 2016 y. 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erQinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7-dekabrda 2019- 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi farmoni. 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020-yil 	

12-noyabrdagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora –tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-noyabrdagi Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

6.O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni. 2017 yil, 3-yanvar

Elektron ta’lim resurslari

- vvv.gov.uz

vvv.press-service.uz

vvv.parlament.gov.uz

- vvv.uza.uz

- vvv.cbu.uz-

- vvv.lex.uz

- vvv.ziyonet.uz

1.2. Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo‘llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta’minoti to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar.Tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo‘llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sog‘lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o‘rnini; • sog‘liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini;

	<ul style="list-style-type: none"> • ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • hozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda- tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika xavfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.
Adabiyotlar: <ol style="list-style-type: none"> 1. A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent "O'qituvchi ta'minoti", Toshkent Mehnat -2000 yil. 2. A.Axmedov, N.Taylaqov "Informatika", Toshkent, O'zbekiston -2002y. 3. A.Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent, O'qituvchi-2003 4.T.Xolmatov, N. Taylaqov "Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy 5. Sheraliyev F.A. "Informatika va axborot texnologiyalari" Termiz-2010. Elektron ta'lim resurslari http://vvv.edu.uz http://vvv.pedagog.uz vvv.tma.uz, vvv.lex.uz	

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta'minlovchi	Infekcion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko'nikma va mas'uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: Bilimlar: <ul style="list-style-type: none"> • Infekcion kasalliklar yuqish yo'llari

bilim, ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> • Sanitariya-epidemiologik me'yorlar • Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari <p>Amaliy ko'nikmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • To'g'ri qo'l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash <p>Mas'uliyat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qoidalarga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (San.Q va M); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalaniş tamoyillarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda San.Q.va.M.larga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladigan chora-chadbirlar yig'indisini; • o'ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibini;
O'quv moduli mazmuni:	<p>Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalaniş tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.</p>

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y.
2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish,saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”
- 3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi”O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019yil.
- 4.F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020
- 5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>
- 6.COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi **sayti**
→ **rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar**
- 8.ZiyoNET
→ bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar
Elektron ta’lim resurslari:
<http://www.edu.uz>
<http://www.pedagog.uz>
www.tma.uz,
www.lex.uz
<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none">• Nazariy bilimlar: sterilizatsiya usullarining fizik-kimyoviy asoslarini bilish• Amaliy ko‘nikmalar: uskunalarni to‘g‘ri ishlatish va nazorat qilish• Xavf-xatarni baholash: issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash• Me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish: sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar

	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik: nosozlik yoki avariya holatida to‘g‘ri harakat qilish <p>3. Zamonaviy yondashuvning ahamiyati</p> <p>Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • infeksiya xavfini kamaytiradi, • ish unumdorligini oshiradi, • xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta‘minlaydi, • sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Sterilizatsiya sohasi bo‘yicha mavjud bo‘lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lish. Sterilizatsiya va uning turlarini. • Gazli sterilizatsiya usullarini • Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini • Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni, • tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini, • texnika xavfsizligini, • tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.
O‘quv moduli mazmuni:	<p>Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o‘qitish va o‘rgatish. Mashg‘ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari haqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo‘yicha ma‘lumotlar berib borish.</p> <p>Asosiy diqqat va e‘tiborni sterilizatsiya ishlarini to‘g‘ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo‘lishini ta‘minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to‘g‘ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to‘la amal qilish.</p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1. K.F. Melibayeva, G.F. Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo‘llanma. Qo‘qon. 2025 yil.</p> <p>2. V.N. Turaqulov, F.A. Qurbonov. "Xirurgiyada xamshiralik parvarishi" O‘quv qo‘llanma. Navoi nashriyot. 2019 yil.</p> <p>3. G.T. Dxritiman, G.T. Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo‘yicha qo‘llanma-Bug‘li sterilizator (Avtoklav)" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar. Toshkent. 2024 yil.</p>	

4.G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova “Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo‘yicha qo‘llanma-Plazmali sterilizator” Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil.

5.Elektron ta’lim resurslari:

1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari

- Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari
Muallif: Arzimatova Ra’no Pardaboy qizi ([JournalSS](#))

2. Aseptika va antiseptika asoslari

- Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo‘llanishi

Mualliflar:

- Sh.Ya. Radjabov
- G.R. Kadamova
- M.M. Olimova ([pedagogs.uz](#))

3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya

- Mikrobiologiya va virusologiya
- Mualliflar: OTM professor-o‘qituvchilari (NamDU) ([www.namdu.uz](#))

4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya

- Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari ([book.bsmi.uz](#))

5. Sterilizatsiya usullari va qo‘llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya

- Sterilizatsiya usullari va ularning qo‘llanilishi
- Muallif: Shoda Team ([Hujjat24](#))

1.5. Modul: Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko‘rsatkichlarini; • sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta’sir etuvchi omillar: irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni;

	<ul style="list-style-type: none"> • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni; • to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to'g'ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikka ta'sirini; • zararli odatlarning organizmga ta'sirini; • tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etishni; • sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni;
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo'llarini; • jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.

Tinglovchilarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ 4887-sonli qarori.**

2. **VMQ 2025 y. 6-may № 297** “ Sog‘liqni saqlash va ta‘lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “ Toza qo‘llar” dasturi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ 4063-sonli qarori.**

4. **SSV buyrug‘i № 97, 2024 y, 27 mart.** “Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlarni samarali o‘tkazish, aniqlangan kasalliklar bo‘yicha manzilli sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish” to‘g‘risida.

5. **SSV ning № 175-buyrug‘i, 2025 yil, 20-iyun.**” Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”

6. Sh. Zokirxo‘jayev, A. Gadoyev, M. Turimbetova “Dietologiya ” 2023 yil

7. A. Gadayev, L. Musadjanova, N. Pirmatova, N. Mo‘minova “Shifobaxsh taomlar ” 2017 yil.

8. Sh. Qurbonov, A. Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalari ” 2014 yil

9. Elektron ta‘lim resurslar:

1. inlibrary.uz – sog‘lom turmush maqolalari
2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar
3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar
4. yuz.uz – sog‘lom turmush dasturlari
5. hujjat 24.uz – o‘quv materiallar

2.0. Mutaxassislik fanlar

2.1. Modul: Reproduktiv salomatlik va “Bexatar onalik” masalalari.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	“Onalik va bolalikni muhofaza qilish”ning qonunchilik asoslari, SSVning mutaxassislikka oid amaldagi buyruqlari. Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish. Reproduktiv davr. Reproduktiv xuquq masalalari. Oilaviy shifokor yoki akusher- ginekolog bilan

	<p>birgalikda homilador,tuqqan ayolni olib borish bo'yicha individual reja ishlab chiqish.Akusherka (hamshira)ning xuquq,vazifalari va tibbiyot deontologiyasi. Zamonaviy kontratseptiv vositalarining turlari, xususiyatlari, qo'llanishi va asoratlari,ayol yoshiga qarab kontratsepsiya usullarini tanlashda maslahat olib borish.Sog'lom turmush tarzi targ'ibotini olib borish va patronaj ishlarni tashkillashtirish.Reproduktiv yoshdagi ayollarga akusherlik (hamshira) yordamini ko'satishni.O'smirlar kontratsepsiyasi xususiyatlari.</p>
<p>O'quv modul yakunida bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • sog'lom oilani shakllantirishda reproduktiv salomatlik va bexatar onalik masalalarini; • bexatar onalik tamoyillarini; • fertil yoshdagi ayollarni salomatligini mustahkamlash va bolalar salomaligini muhofaza qilishda tibbiy ko'riklarning ahamiyatini; • o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishni; • oilani oqilona rejalashtirish va istalmagan homiladorlikning oldini olish bo'yicha tadbirlar o'tkazishni; • tug'ma va irsiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj tizimi samaradorligini oshirish yo'llarini; • kontratsepsiyaning zamonaviy usullarini; • o'smirlar kontratsepsiyasini hususiyatlarini.
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Tug'ish yoshidagi ayollarni parvarish qilishni; • kontratsepsiya usulini tanlash bo'yicha maslahatlar o'tkazishni; • sut bezini tekshirishni; • qindan bakterioskopik tekshirish uchun surtma olishni; • BIVni qo'yish uchun asbob-anjomlarni tayyorlashni; • BIV qo'yish paytida noxush xolatlar paydo bo'lganda birinchi yordam ko'satishni; • ayollarni IJK ga tayyorlashni; • kontratsepsiyaning jarrohlik usulidan so'ng bemorlar parvarishini; • xonani,asbob-anjomlarni vrach ko'rigiga tayyorlashni; • turli laborator va qo'shimcha tekshirish usullariga yo'llanma berishni; • meyoriy xujjatlarni yuritishni; • ishlatilgan asbob-anjomlarni birlamchi zararsizlantirishni.

Tinglovchilarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.F.M. Ayupova,G.A.Ixtiyarova,G.I.Matrizayeva. ”Akusherlik va ginekologiya”Buxoro-2021y. 21-28-betlar
- 2.G.A.Ixtiyorova,X.N.Negmatshayeva,X.T.Shodiyeva.Akusherlik va ginekologiyada xamshiralik ishi”Toshkent-2019 y. 99- va 324-betlar.
3. Ya.N. Allayorov «Akusherlik» Toshkent 2011y.32-73betlar.
- 4.Ya.N.Allayorov,D.Q.Tosheva “Onalikda xamshiralik parvarishi” Toshkent. 2012y.109-114 betlar
- 5.”Aholi o‘rtasida reproduktiv salomatlik borasida bilim darajasini oshirish.”O‘quv qo‘llanma.Tashmuxeammedova D.G.Asadov D.A.va boshqalar. Toshkent 2019y.
- 6.” Davolash -profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish” V.N.Turaqulov.F.B. Gafarov.Navoiy.O‘quv qo‘llanma. 24-39 bet.
- 7.F.I.Shukurov,G.M.Nigmatova.”Akusherlik va ginekologiya”Elektron darslik.Toshkent -2022y.
8. Elektron ta’lim resurslari:
 - 1.O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – vvv.edu.uz.
 - 2.O‘zR Sogliqni saqlash vazirligi -vvv.minzdrav.uz
 - 3.RCGP e-Learning – Maternal Health Library (Antenatal Care) – Akusherlik va ayollar salomatligi resurslari, elektron darslar va qo‘shimcha materiallar.
Manzil: elearning.rcgp.org.uk

13. Muddatdan oldin antibiotik profilaktikasi qachon qo‘llaniladi
- A) Tug‘ruqni 1 davri*
 - B) Tug‘ruqni 3 davri
 - C) Tug‘ruqni 2 davri
 - D) Tug‘ruqdan so‘ng
14. Preeklampsya klinikasi
- A) Qon bosimi ko‘tarilishi, ko‘z belgilari simptomlari*
 - B) Teri orqali umumiy oqsilnichiqishi
 - C) Qon orqali umumiy oqsil ajratishi
 - D) Najas orqali umumiy oqsilni ajratishi
15. Gestoz rivojlanishi mumQin bo‘gan xavfi yuqori guruxlarga kiradi
- A) Ekstragenital kasalliklari bo‘lgan ayollar*

- B) Oshqozon-ichak trakti kasalliklari bo‘gan ayollar
- C) Siydik ayirish sistemasi kasalliklari bo‘lgan ayollar
- D) Nafas olish sistemasi kasalliklari bolgan ayollar

16. Preeklampsiya onada kuzatiladigan asorat:

- A) Platsentani vaqtidan oldin ko‘chishi*
- B) A/B ko‘tarilishi
- C) Harorat ko‘tarilishi
- D) Proteinuriya

17. Preeklampsiya bolada kuzatiladigan asorat

- A) Ona qornida xomilaning nobud bo‘lishi*
- B) A/B ko‘tarilishi
- C) Harorat ko‘tarilishi
- D) Proteinuriya

18. Qachon muddatdan o‘tgan tug‘ruq deyiladi

- A) 42 xafta*
- B) 43 xaftada
- C) 37 xafta
- D) 40xafta

19. Og‘ir preeklampsiyada bolada kuzatiladigan asorat

- A) Ona qornida xomilaning nobud bo‘lishi*
- B) B A/B ko‘tarilishi
- C) Harorat ko‘tarilishi
- D) Proteinuriya

20. Tug‘ruqni operativ yo‘l bilan tugatishga ko‘rsatma

- A) A/B bosimi oshishi, yurak urishini tezlashishi, platsentaning ko‘chishi*
- B) Qon bosimi oshishi
- C) Qon bosimi, yurak urishini tezlashishi
- D) Qon bosimini shishi, anasarca

21. Eklampsiyaning klonik tirishishlar bosqichining klinikasi

- A) Butun tana muskullarining qisqarishi*
- B) Qon bosimini oshishi, taxikardiya
- C) Qon bosimini oshishi, anasarca

D) Harorat ko‘tarilishi

22. Erstragenital kasalliklar:

- A) Jinsiy organlardan tashqaridagi kasalliklar*
- B) Yurak qon tomir sistemasi kasalliklari
- C) Ayirish sistemasi kasalliklari
- D) Xazim sistemasi kasalliklari

23. Chaqaloqlar reanimatsiya nechi daqiqa ichida olib boriladi yurak urishi va nafas yo‘q bo‘lganda

- A) 20*
- B) 30
- C) 15
- D) 40

24. 1 darajali ko‘ngil aynash va qusish...

- A) Kuniga 5 marta*
- B) Kuniga 6-10 marta
- C) Kuniga 20-25 marta
- D) Kuniga 3 marta

25. 2 daraja ko‘ngil aynash va qusish

- A) Kuniga 6-10 marta*
- B) Kuniga 20-25 marta
- C) 5 marta, bir kun
- D) Kuniga 3 marta

26. 3 daraja ko‘ngil aynash va qusish

- A) 20-25 martakuniga*
- B) 5 marta, bir kun
- C) Kuniga 6-10 marta
- D) Kuniga 3 marta

27. Yurak qon tomir kasalliklarida tug‘ruqdan keying kritik davrlarni ko‘rsating

- A) Tug‘ruqdan keyin 3-5 kungacha*
- B) Bir xftagacha
- C) Bir oygacha
- D) 42 kungacha

28. Homiladorlikda yurak parogoning og'ir turi
- A) O'pka gipertenziyasi*
 - B) Metral stenoz
 - C) Qorinchalar aro tirqishning etishmovchiligi
 - D) Aorta kaortasiyasi
29. Homiladorlikda ko'p uchraydigan ekstragenital kasalliklar
- A) Yurak paroklari va pnevmaniya
 - B) Gipertoniya va miopiya
 - C) Anemiya pielonifrit endemik buqoq*
 - D) Qandli diabet kardio miopatiya
29. Preeklampsiyada ichiladigan sutkalik suyuqlik miqdori
- A) 1000 ml*
 - B) 800 ml
 - C) 300 ml
 - D) 500 ml
30. Preeklampsiyada mumQin bo'lgan maxsulotlar
- A) Meva, sabzavot, go'sht mahsulotlari sut maxsulotlari*
 - B) Kofe, sitruslar, shokolad, uglivodlar
 - C) Yog'li go'sht, tort, kanfetlar
 - D) Qahva, yog'li go'sht
31. Preeklampsiyada mumQin bo'lmagan maxsulotlar
- A) Kofe, yog'li go'sht, xar xil gazli suvlar*
 - B) Meva, sabzavot, go'sht mahsulotlari sut maxsulotlari
 - C) Sabzavot, meva, malochnoe olma
 - D) Atvarnoe go'sht, sut, qatiq
32. Yashirin shishni aniqlash usuli
- A) Uzuk, bilak uzuk simptomi*
 - B) Vasten simptomi
 - C) Sangeymester simptomi
 - D) Piskachek simptomi
33. Apnoe bu

- A) Nafas to'xtashi*
- B) Yurak to'xtashi
- C) Nafas va yurak to'xtashi
- D) To'g'ri javob yo'q

34. Qondagi gemogloblin miqdori normada qancha

- A) 120-1*
- B) 110-115g.l
- C) 80-90g.l
- D) 130-140g.l

35. Qandli diabet kasalligida homilador bolish munkunmi

- A) MumQin emas*
- B) MumQin
- C) Ayolning umumuy xolatiga bog'liq
- D) Ayolning umumuy xolatiga bog'liq emas

36. Kolpit bu

- A) Qinning yalliglanishi*
- B) Bachadonning yallig'lanishi
- C) Bachadon naylarining yallig'lanishi
- D) Tashqi jinsiy organlarining yallig'lanishi

37. TORch infeksiyasi bu

- A) Jinsiy organlarda uchraydigan spetsifik yallig'lanish kasalliklari*
- B) Yallig'lanish kasalliklari
- C) Infeksion kasalliklar
- D) Zamburug'lar qo'zgatadigan kasalliklar

38. Kam qonlik belgilari

- A) Bosh ogrig'i bosh aylanishi*
- B) Qusish
- C) Qorindagi og'riq
- D) Bel soxasidagi og'riq

39. Kislarod tanqisligiga eng sezgir to'qma

- A) Miya*
- B) Nerv

- C) Jigar
- D) Musku

40. Pielonefrit tashxisi qo'yishda qaysi tekshiruv o'tkazilmaydi

- A) Angiografiya*
- B) Qonni va siydikning umumiy taxlili
- C) Siydikni Nisheparenko bo'yicha taxlili
- D) Siydikni umumiy tahlili

41. Qaysi xolatlarda kesar kesish o'tkaziladi

- A) Qon aylanishini yetishmovchiligi*
- B) Septik endokardit
- C) Otkir yurak yetishmovchiligi
- D) O'pka gipertenziyasi

42. Qandli diabetda qaysi xollarda kesar kesish o'tkaziladi

- A) Xomilada boshlangan asfiksiyasi*
- B) Tug'ruq kuchlarining sustligi
- C) Suvsiz davr 6 soatdan ko'p
- D) Yirik xomila va boshqa akusherlik asoratlari

43. Qandli diabetda neonatal asoratlarning eng ko'p uchraydigan turi

- A) Tug'ruq travmasi*
- B) Respirator distress sindrom
- C) Gipoglikemiya
- D) Gipokalsiemiya

44. Homiladorlik vaqtida eng ko'p uchraydigan xirurgik asorat

- A) O'tkir appendisit*
- B) Xolisistit
- C) Gepatit
- D) Pielonefrit

45. Homiladorlik vaqtida o'ng yuqori kvadrat soxasidagi og'riq qaysi kasallikda kuzatiladi

- A) Xoletsitit*
- B) Otkir appendisit
- C) Gepatit

D) Pielonefrit

46. Homiladorlik vaqtida kam qonlikka olib keluvchi sabablar

- A) Tugruqlar oralig'i 3 yil bo'lishi*
- B) Xomilani tushish xavfi
- C) Kasbga bog'liq zararlar
- D) Giperpolimenoreya

47. Homiladorlik vaqtida ovqat tarkibidagi temir sarflanadi

- A) Homilani shakillanishiga ishlatiladi*
- B) Plasentani shakillanishiga ishlatiladi
- C) Bachadon mushagida tuplanadi
- D) Qo'shimcha gemoglobin ishlab chiqishga keadi

48. Kam qonlik tashxisi nimaga asoslanib belgilanadi

- A) Qon taxliliga asoslanib*
- B) Shikoyatlarga asoslanib
- C) Yurak qon tomirdagi o'zgarishlarga asoslanib
- D) Trofik o'zgarishlarga asoslanib

49. Gestasion qandli diabet rivojlanishi mumQin bo'lgan homiladorlar guruxiga kirmaydi

- A) Taksikozi bor ayollar*
- B) Yirik xomila tug'ganlar
- C) Semizligi bor ayollar
- D) Qarindoshlarida qandli diabeti bo'lgan ayollar

50. Homililadorlikda kam qonlikka olib keluvchi faktorlar

- A) Tug'ruqlar oralig'ining 3 yildan kamligi*
- B) Kasbiy zararli faktorlar
- C) Giperpolimenireya
- D) Xomilani tushib qolish xavfi

10-Вариант

1. Temir tanqisligi anemiyasi homiladorlikda nimani xisobiga rivojlanadi

- A) Organizmda temirga extiyojining ko'payishi*
- B) Oziq-ovqatda vitaminlar va temirning yetishmasligi
- C) Tug'ruqlar orasidagi intervalning kamligi

- D) Oshqozon xazim sistemasidagi kasalliklar
2. Bachadondan disfunktsional qon ketishining klinik manzarasi qanday bo‘ladi
- A) Hayzning muddatidan oldin kelishi va ko‘p qon ketishi*
 - B) Hayz muddatidan o‘tib kelishi va bunda davomli ko‘p qon ketishi
 - C) Hayz davrida xaddan tashqari kam qon ketishi
 - D) Hayzning og‘riqli davom etishi
3. Yuvenil qon ketishi qaysi yoshda uchraydi
- A) O‘smirlik yoshi*
 - B) Balog‘at yoshiga yetmagan qizlarda
 - C) 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarda
 - D) Ayollarning yetilib voyaga yetgan yoshida
4. Jinsiy a‘zolar sili xayz siklida quyidagi o‘zgarishlar bilan ifodalanadi
- A) Oligomenoreya, amenoreya*
 - B) Menorragiya
 - C) Polimenoreya
 - D) Metrorragiya
5. Bachadon aplaziyasi (bo‘lmasligi) amenoreyaning qaysi turiga sabab bo‘ladi
- A) Birlamchi chin amenoreya*
 - B) Ikkilamchi chin amenoreya
 - C) Soxta amenoreya
 - D) Fiziologik amenoreya
6. Bachadon vaziyati anomaliyalarining qaysi turida xayz ko‘rish siklining buzilishi, og‘riq ko‘proq uchraydi
- A) Orqaga qaragan va bukilgan (retroverzio fleksio)*
 - B) Bachadon tanasi chanoq yon devoriga qaragan va siljigan (lateroverzio pozitsio)
 - C) Oldinga burilgan va bukilgan (anteverzio fleksio)
 - D) Bachadon pastga tushgan (destensis uteri)
7. Algomenoreyaning (og‘riqli xayz ko‘rishni) davomida quyidagi dori darmonlardan samarali foydalanish mumQin
- A) Antipirin, piramedon, opiy tomchisi, beladonna ekstrakti, noshpa*
 - B) Follikulin, sinestrol, oktestrol
 - C) Progesteron, turinal, pregnin, 17 oksiprogesteron kapronat

D) Pituitrin, oksitotsin, vasopressin

8. Gematometra – gematokolpos (bachadon bo‘shlig‘i, qinda menstruatsiya qonning to‘planib qolishi) quyidagi taraqqiyot nuqsonining oqibatida sodir bo‘ladi

- A) Qizlik pardasi bitib qolganda*
- B) Qin aplaziyasi (qinning bo‘lmasligi)
- C) Bachadon bo‘shlig‘ida parda devor bo‘lishi
- D) Bachadon gipoplaziyasi (infantilizm)

9. Qinning tozalik darajasini saqlovchi asosiy omil

- A) Qinda Dederlein (sut kislotasi ishlab chiqaruvchi) tayoqchalarni yetarlicha bo‘lishi*
- B) Qin epiteliyasining sitologiyasini o‘rganish
- C) Qinda ishqorli muxit bo‘lishi
- D) Organizmda esterogen garmonlari yetarlicha bo‘lishi

10. Parametrit deganda qanday patologiyani tushunasiz

- A) Bachadon atrofi kletchatkasining yallig‘lanishi*
- B) Chanoq kletchatkasining yallig‘lanishi
- C) Kichik chanoq azolarini o‘rab turgan qorin pardaning yallig‘lanishi
- D) Bachadon naylari va tuxumdonlarining yallig‘lanishi, chanoq kletchatkasining yallig‘lanishi

11. Bolalarda nospesifik yallig‘lanish kasalliklarining kelib chiqishida qaysi mikroorganizmlar asosiy rol o‘ynaydi

- A) Stafilo-streptokokklar*
- B) Ichak tayoqchalari zamburug‘lar
- C) Gonokokklar
- D) Trixomonadalar

12. Bolalarda jinsiy a‘zolar yallig‘lanish kasalligi qaysi turi ko‘proq uchraydi

- A) Vulvit*
- B) Vaginit (kolpit)
- C) Endotservitsit
- D) Salpingit

13. Jinsiy a‘zolar yuqori qismining o‘tkir septik yallig‘lanishi kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan yetakchi dori darmonlar...

- A) Antibakterial preparatlar (antibiotik va sulfanilami)*
- B) Og‘riqni qoldiruvchi
- C) Bachadonni qisqartiruvchi
- D) Xaroratni pasaytiruvchi

14. Nospesifik yallig‘lanish kasalliklarini ko‘pincha quyidagi organizmlar keltirib chiqaradi

- A) Stafilo-streptokokklar*
- B) Kox tayoqchalari
- C) Gonokokklar
- D) Oq spiroxeta

15. Kolpit kasalligining asosiy simptomlari

A) Qin shilliq pardasining giperemiyasi, qin burmalari orasida yiringli oqchil to‘planishi*

- B) Bachadon bo‘yni kanalining giperemiyasi, yiringli oqchil ajralishi
- C) Bachadon bo‘shlig‘idan yiring ajralib chiqishi, unda qattiq og‘riq bo‘lishi
- D) Katta va kichik uyatli lablar sohasida qichishish, qizarish, oqchil ajralishi

16. O‘tkir gonoreya kasalligini chaqiruvchi mikroblar qaysi usul bilan aniqlaniladi

- A) Qindan ajralib chiqqan oqchilni mikroskop ostida ko‘rish*
- B) Bachadon shilliq qavatidan qirma olib tekshirish
- C) Maxsus qoshiqchalar bilan siydik chiqarish, bachadon bo‘yni kanalidan qindan surtma olish
- D) Siydikni umumiy taxlil qilish yo‘li bilan

17. Surunkali gonoreyani aniqlash uchun xotin-qizlar maslaxatxonasida keng qo‘llaniladigan va eng qulay provokatsiya usuli

- A) Alimentar*
- B) Kimyoviy
- C) Mexanik
- D) Biologik provokatsiya

18. Xotin-qizlar jinsiy azolari sil kasalligi aksariyat xollarda qaysi yul bilan yuqadi

- A) Gematogen, nafas olish azolaridan*
- B) Kanalikuliyar (pastdan yuqoriga ko‘tarilishi)
- C) Infeksion (tozalanmagan shprislar bilan ineksiya qilingand)
- D) Limfogen

19. Jinsiy azolar silini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar muxim ahamiyatga egadir
- A) Bachadon bo'shlig'idan jaroxatlangan joyidan olingan aspirat va surtmalardan tuberkulyoz tayoqchasini topilishi*
 - B) O'pkadan ajralib chiqqan balg'amdan tuberkulyoz (Kox tayoqchasining topilishi)
 - C) Ayolda xayz funksiyasini buzilishi, bepushtlik
 - D) Qonda leykotsitoz va eritrotsitlar reaksiyasi (ECHR)
20. Kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarni qanday aniqlash mumkin
- A) Kasallangan azodan kelayotgan oqchilni oziqali muxitga ekish*
 - B) Qindan olingan surtmani o'rganish
 - C) Qonni umumiy taxlil qilish
 - D) Qonni maxsus tayyorlangan ozuqali muxitga ekish
21. Asosiy tekshirish usullarini ko'rsating
- A) Tashqi jinsiy a'zolari ko'zdan kechirish*
 - B) So'rab surishtirish
 - C) Mijoz holatini ko'zdan kechirish
 - D) Pasport ma'lumotlarini to'plash
22. Qo'shimcha tekshirish usullarini ko'rsating
- A) Kolposkopiya, UTT, bachadonni zondlash, biopsiya*
 - B) Vaginal –abdominal, rekto-abdominal
 - C) Ko'zgular yordamida tekshirish
 - D) Palpatsiya, perkusiya
23. Qo'shimcha tekshirish usullariga kirmaydi
- A) Tashqi jinsiy a'zolari ko'zdan kechirish*
 - B) Kolposkopiya, UTT, bachadonni zondlash, biopsiya
 - C) Laboratoriya usullari
 - D) Funktsional test diagnostika usullari
24. Ginekologik bemorlardan subektiv ma'lumot to'plash deganda nima tushunasiz
- A) Bemordan ma'lumotlarni so'rab surishtirish*
 - B) Bemor holatini ko'zdan kechirish
 - C) Bemor kuzatuvini olib borish
 - D) Tekshiruvlardan so'ng bemor holati

25. Ayol organizmi spetsifik funksiyalari
- A) Yuqumli kasalliklari*
 - B) Yallig‘lanish kasalliklari
 - C) Hayz, bola tug‘ish, sekretor funksiyalarning xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi
 - D) Hayz funksiyasini tipi
26. Erta toksikozlarning klinik belgilarini aniqlash
- A) Kongil aynash, qusish, so‘lak oqishi ko‘paydi*
 - B) Bosh aylanishi, holsizlik
 - C) Ovqatdan keyin ko‘ngil aynishi va qayt qilish
 - D) Epigastral og‘riqlar, yagona qayt
27. Homiladorlikni 1 chi yarmida qon ketish sabablari
- A) Bola tashlash bachadondan tashqari homiladorlik*
 - B) Qog‘onoq suvi ketishi
 - C) Tug‘ruq jarohatlari
 - D) Qon ivish tizimini buzilishi
28. Preeklampsiya zamonaviy tasnifi belgilang
- A) Surunkali gipertoniya, homiladorlik keltirib chiqaruvchi gipertoniya, yengil eklampsiya, og‘ir eklampsiya*
 - B) Preeklampsiya, eklampsiyaning o‘rta darajasi, eklampsiya og‘ir darajasi
 - C) Preeklampsiya, eklampsi qaytqilish
 - D) Nefropatiya, preeklampsiya, eklampsiyada
29. Chaqaloqlarda fiziologik sariqlik qachon paydo bo‘ladi
- A) 3 kuni*
 - B) 4 kuni
 - C) 1 kuni
 - D) Tug‘ilgan zaxoti
30. Homiladorlikda qayt qilishining qaysi darajasida aseton paydo bo‘ladi
- A) Og‘ir*
 - B) Ikkinchi darajali
 - C) Yengil
 - D) Surunkali darajasida

31. Yangi tugʻilgan chaqaloqni 1 minutda nafas olish soni
- A) 45*
 - B) 100
 - C) 65
 - D) 90
32. Quyidagidan tashqari, homiladorlikning erta toksikozlari belgilariga kiradi
- A) Bosh ogʻrigʻi*
 - B) Atsetonuria
 - C) ogʻirligi yoʻqotish
 - D) Gipotenziya
33. Preeklampsiyaning patogenetik mexanizmlariga kiradi
- A) Dvs*
 - B) Gipovolemiya, mikrosirkulyasiyaning buzilishi
 - C) Bachadon plasenta mikrosirkulyatsiyasining buzilishi
 - D) Qon tomirlarning kengayishi
34. Preeklampsiyaning kompleksli infuzion terapiyasida qaysi preparatlar qoʻllanilmaydi
- A) Vitaminlar b1 guruh*
 - B) Antikoagulyantlar
 - C) 5% glyukoza eritmasi
 - D) Mikrotsirkulyator va qon reologiyasini yaxshilovchi
35. Eklampsia xuruji rivojlantirishi mumQin
- A) Hammasi toʻgʻri*
 - B) Toʻlgʻoq tutish davrida
 - C) Tugruqdan keyin
 - D) Erta tugʻruqdan keyingi davrda
36. Homiladorlik davri eklampsi uchun vrach uchun optimal tibbiy taktika
- A) Shoshilinch kesar kesish*
 - B) Tabiiy tugʻruq
 - C) Jonlantirish boʻlimiga yotqizish
 - D) Intensive terapiya oʻtkazish

37. Preeklampsiyani davolashda ishlatilmaydi
- A) Bir xil guruxli qon*
 - B) Antikoagulyantlar
 - C) O'rta va past molekulyar og'irligi dekstranlar
 - D) Mikrotsirkulyator va qon reologiyasini yaxshilovchi
38. Homiladorlik patologiyasi bo'limi nima uchun kerak
- A) Har hil ekstragenital kasalligi bor homiladorlar va asoratli homiladorlikni davolash va tug'ruqqa tayyorlash uchun*
 - B) Patologik holat bilan tug'adigan tug'uvchi ayollar uchun
 - C) Homiladorlik gestozlari bo'lgan ayollarga
 - D) Ayol jinsiy a'zolari kassalıkları bo'lgan homilador ayollarga
39. Yangi tug'ilgan chaqaloqni 1 daqiqada pulsi
- A) 120-140*
 - B) 220
 - C) 150
 - D) 245
40. Preeklampsiya qachon paydo bo'ladi
- A) Homiladorlikning 2-chi yarmida*
 - B) Homiladorlikning birinchi 2-3 oyida
 - C) Homiladorlikning 5-6 oyida
 - D) Tug'ruqqa 2-3 oy qolganda
41. Preeklampsiya tasnifini aniqlang
- A) Istisqo, nefropatiya, preeklampsiya, eklampsiya*
 - B) Qusish, ptializm
 - C) Nefropatiya, preeklampsiya
 - D) Nefropatiya, preeklampsiya, eklampsiya
42. Laktostaz nima
- A) Ko'krakda sut turib qolishi*
 - B) Ko'krakda sut paydo bo'lishi
 - C) Sutni kamayishi
 - D) Sutni ko'payishi
43. Tug'ruqdan so'ng ko'p uchraydigan infeksiya turi

- A) Mastit*
- B) Tromboflebit
- C) Ichki organlar kasalliklari
- D) Septik shok

44. Tashqi jinsiy a'zolar ko'zdan kechirilganda nimalarni ko'ramiz

- A) Jun bilan qoplanganligi, katta va kichik qina uyatli lablar, siydik chiqaruv kanali, qin daxlizi, oraliq, Bartolin bezlari*
- B) Qov sohasi
- C) Anal teshigi, oraliq, ko'krak bezlari
- D) O'smani yaxshi yomon sifatligini aniqlash

45. Sistoskopiya nima

- A) Qovuq kasalliklarini aniqlash usuli*
- B) Siydik yo'llari kasalliklarini aniqlash usuli
- C) Qin kasalliklarini aniqlash usuli
- D) Ko'krak kasalliklarini aniqlash

46. Sistoskopiya nima uchun o'tkaziladi

- A) Jinsiy a'zolar raQining qovuqqa tarqalgan-tarqalmaganligini aniqlash uchun*
- B) Jinsiy a'zolar raQining siydik yo'llariga tarqalgan-tarqalmaganligini aniqlash uchun
- C) Jinsiy a'zolar raQining qinga tarqalgan-tarqalmaganligini aniqlash uchun
- D) Jinsiy a'zolar raQining to'g'ri ichakka tarqalgan-tarqalmaganligini aniqlash uchun

47. Kolposkopiya tekshiruvi qachon o'tkaziladi

- A) Diagnostika maqsadida bachadon bo'yni va qindagi shubhali eroziyalarni ko'zdan kechirish uchun*
- B) Diagnostika maqsadida bachadondagi o'zgarishda ko'zdan kechirish uchun
- C) Diagnostika maqsadida jinsiy a'zoldagi o'zgarishda ko'zdan kechirish uchun
- D) Diagnostika maqsadida bachadondagi o'zgarishda ko'zdan kechirish uchun

48. Endoskopik tekshiruv usullarini ko'rsating

- A) Kolposkopiya, gisteroskopiya, rektoskopiya*
- B) UTT, rentgenografiya
- C) Mammografiya, flyuroografiya
- D) Bakteroskopiya, UTT

49. Gidrotubatsiya qachon o'tkaziladi

- A) Bachadon naylarining o'tkazuvchanligini aniqlashda*
- B) Qin o'tkazuvchanligini aniqlashda
- C) Bachadon o'tkazuvchanligini aniqlashda
- D) Jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklarni aniqlash maqsadida

50. UTT yordamida tekshiriladi

- A) Bachadon, bachadon naylari, bachadon ortiqlari, bachadondagi kasalliklar*
- B) Bachadon, qin, tuhumdon
- C) Bachadon, bachadon naylari, qin
- D) Bachadondagi homila, sikl o'zgarishlari

6.4. Yakuniy attestatsiya uchun vaziyatli masalalar.

1- Vaziyatli masala.

Yangi tuqqan ayolning 5-kuni tana xarorati 38 S ko'tarildi, oraliqdagi choklar orasida og'riqlar paydo bo'ldi. Genitalni ko'rilganda oraliq sohasida choklar giperemiyasi va infiltratsiyasi, yiringli qoplama bilan qoplangan.

Savol: 1. Bemor muammosini aniqlang.

2. Hamshiralik tashxisini qo'ying.

3. Tekshiruv rejasi.

4. Parvarish rejasini tuzing.

5. Sizningcha bemorda qanday kasallik simptomlari kuzatilmoqda.

2- Vaziyatli masala.

Yangi tuqqan ayolning tug'ruqdan keyin 3-kun bachadon subinvalyutsiyasi va gematometra aniqlandi. Bachadon bo'shlig'ni qirib tozalandi. 5-kuni uyiga javob berildi. Keyingn kuni kechqurun bachadondan qon ketib, shok xolatida ginekologiya bo'limiga olib kelindi. Bo'limda, abrasio cavi uteri operatsiyasi o'tkaziladi. Gemotransfuziya qilindi 750 ml yangi qon, shokka qarshi tadbirlar o'tkazildi. Keyingi kuzatuvda t 38°S. bachadon og'riqli, jinsiy yo'llardan yiringli ajratma aniqlandi. Intensiv terapiya foyda bermadi, xansirash, o'pqada xirillashlar qo'shildi.

Savol: 1. Bemor muammosini aniqlang.

2. Hamshiralik tashxisini qo'ying.

3. Tekshiruv rejasi.

4. Parvarish rejasini tuzing.

5. Shokka qarshi qanday tadbirlar o'tkazish mumkin?

3- Vaziyatli masala.

Bemor 19 yoshda. II xomiladorlik. 6-7 hafta. Shikoyatlari: ko'ngil aynishi, kun davomida 7-8 martalab qayt qilish, so'lakni ko'plab ajralishi, ishtaxasizlik, umumiy xolsizlik. Anamnezidan: berilgan simptomalar oxirgi 10 kundan beri ayolni bezovta qilmoqda, 2kg.ga ozgan. Ob'ektiv ko'rik: teri va ko'rinarli shilliq pardalari ochpushti rangda. AQB 100/70, 90/60 mm.sit.ust. puls – 90ta/min, ritmik. Tana xarorati – 36,8⁰S Qorin yumshoq, og'riqsiz Ich kelishi va siyishi o'zgarishsiz. Jinsiy yo'llardan ajralmalar – tiniq, shillikli.

1. Bemor muammosini aniqlang.
2. Hamshiralik tashxisi
3. Tekshiruv rejasi
4. Parvarish rejasi.
5. Xomiladorlikni erta toksikozlarini qanday darajalari bor.

4- Vaziyatli masala.

20 yoshli birinchi marta xomilador bo'lgan ayol xotin-qizlar maslaxatxonasining yo'llanmasi bilan tug'ruqxonaga keldi. Yo'llanmada ko'rsatilishicha xomiladorlik muddati 8 haftalik, ilk toksikoz. Ayollar maslaxatxonasiga birinchi marta 2 hafta oldin murojat qilgan. Shu vaqt ichida 2kg tana vaznini yo'qotgan, siydigida atseton aniqlangan. Oxirgi xayz

9 hafta oldin bo'lgan, xomilador ayolning shikoyati bo'yicha sutkasiga 16 marta qusmoqda. Tana xarorati 37,4S, Puls-100marta, A/B 100/80 sim. ust.

1. Hamshiralik tashxisi.
2. Tekshiruv rejasi
3. Parvarish rejasi.
4. Kasallikni qanday darajasi.
5. Agar davolash natija bermasa nima qilish kerak.

5- Vaziyatli masala.

Birinchi marta bo'lgan ayol xomiladorlikning 36-chi haftasida tug'ruqxonaga keltirilgan cha tug'ruq faoliyati boshlanmagan, boshida va qorinning ustki sog'asida qattiq og'riq borligini, ko'z o'ngi xiralashganligidan shikoyat qilar edi. Bemor 23 yoshda, aytilgan shikoyatlari bundan 3 soat oldin paydo bo'lgan edi. Ayollar maslaxatxonasi ma'lumotiga ko'ra, siydikda oqsil -3gr/l, bemor tug'ruqxonaga yotishdan qattiq bosh tortgan. Ob'ektiv tekshirganda: A/B- 160/100 sim. ust, R-90 marta, badanda shishlar borligi aniqlandi. Ko'p o'tmay titroq xurujlari paydo bo'ldi, xurujlar orasida es-xushi xiralasha boshladi. Chanoq o'lchamlari 25-28-31-19sm. Xomila bo'ylama vaziyatda, yurak urishi ritmik daqiqada 132 marotaba.

1. Taxminiy tashxisingiz?
2. Akusherlik taktikangiz?
3. Qanday tez tibbiy yordam ko'rsatasiz?
4. Xomilador ayolni kuzatishda qanday xatoga yo'l qo'yilgan?
5. Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?

6- Vaziyatli masala.

Tuqqan ayolning tug'ruq yo'llari tekshirilganda oraliqning 3- daraja yirtilishi aniqlangan.

1. 3- daraja yirtilishi deb nimaga aytiladi?
2. Yirtilish sabablari nimalar bo'lishi mumkin?
3. Nima qilish kerak?
4. Tikish uchun qanday asboblarni tayyorlash kerak?
5. Parvarish rejasi nimalardan iborat?

7- Vaziyatli masala.

Bemor V. 30 yoshda. 4- xomiladorlik. Tibbiy markazda vazni 4.2 kg muddatiga yetgan bola tug'di. Bola tug'ilgandan keyin unga 10 birlik oksitotsin mushak orasiga yuborilgan. Yo'ldosh 5 min dan keyin asoratsiz ajralgan. Birok bola tug'ildandan 0.5 soatdan keyin unda kindan kuchli kon ketishi boshlangan. Puls 88 ta, AB 110/80 mm.sim.ust., HOC 18 ta, tana xarorati 37°S. Bachadon kattik, yaxshi kiskargan, yo'ldosh butun. Oralik jaroxati yo'k. Kin va bachadon bo'ynini tekshiruv davom etayotgan kuchli vaginal qon ketishi xisobiga kiyinlashgan. Shuning uchun bachadon bo'yni va qin yorilishi hali istisno qilinmadi.

1. Taxminiy tashxisingiz?
2. Akusherlik taktikangiz?
3. Qanday tez tibbiy yordam ko'rsatasiz?
4. Xomilador ayolni kuzatishda qanday xatoga yo'l qo'yilgan?
5. Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?

8 - Vaziyatli masala.

Tug'ruq bo'limiga 33 yoshli homilador ayol kelib tushdi. 6 soatdan so'ng tug'ruq kuzatildi. 5000.0 vaznli yetilgan tirik o'g'il tug'ildi. 15 min. dan so'ng mustaqil ravishda yo'ldosh ajraldi va tug'ildi. Tug'rukdan so'nggi davrda tug'ruq yo'llaridan qon ketish davom etayapti. Bachadon qisqargan.

1. Taxminiy tashxisingiz?
2. Akusherlik taktikangiz?
3. Qanday tez tibbiy yordam ko'rsatasiz?
4. Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?

5. Parvarish rejasi?

9 - Vaziyatli masala.

Xomilador ayol 38 yoshda. Xomiladorlik III. 31 xafta. Asoratlangan akusherlik anamnezi. Anamnezdan 1.5 yil oldin kesarcha kesish amaliyotini o'tkazgan. Xomilador qorin pastida va belda tortuvchi og'riqlarni sezayapti.

1. Bemor muammosini aniqlang.
2. Hamshiralik tashxisi
3. Diaqnozni aniklash uchun qanday tekshirish o'tkazish kerak?
4. Parvarish rejasi.
5. 31 xaftalik muddatda bachadondagi chandiq yetishmovchiligi uchun nima xarakterli?

10 - Vaziyatli masala.

34 yoshdagi xomilador ayol. O'z vaqtida 2 ta tug'ruq. Bo'yi 162 sm, vazni 72 kg. Bachadon tubi balandligi 40 sm, qorin aylanasi 110 sm. Anamnezda 8 tib.abort, 1 kriminal abort (metroendometrit bilan asoratlangan). 12 soatdan beri tug'ruqda. Bachadon bo'yni to'liq ochilganiga 30 min. bo'ldi. Dard har 1-2 min. 50-55 sek. davom etmoqda, juda og'riqli. Ayol asabiylashgan. Dard tutganda va ular orasida xam korin pastida kuchli og'riqdan shikoyatlanayapti. Kuchanishga xarakat qilayapgi. Chanoq o'lchamlari: 25-26-31-17. Homilaning boshi chanoqqa tikilib turibdi. Bachadonning pastki segmentini paypaslaganda og'riq bor kontraksion xalqa dard yo'qligida kindikdan 2.0 sm pastda. Vaginal ko'rilganda: qog'anoq parda yo'q, bachadon bo'yni to'la ochilgan, shishgan, xomila boshi chanoqqa tikilib turibdi. Promontoriumga barmoq yetadi 10.5 sm.

1. Taxminiy tashxisingiz?
2. Bachadon yirtilishi xavfini qanday belgilari bor?
3. Diaqnozni aniklash uchun qanday tekshirish o'tkazish kerak?
4. Akusherlik taktikasi nimalardan iborat?
5. Parvarish rejasini tuzing.

11 - Vaziyatli masala.

Poliklinikaga qayta tug'uvchi ayol dard belgilariga shikoyat qilib keldi. Anamnezida 3 yil burun xomilaning noto'g'ri yotishi sababli kesarcha kesish operatsiyasi qilinganligi ma'lum. Operatsiyadan keyingi davrda qorinning oldingi devori choklari yiringlashishining ogirlashuvi kuzatilgan. Chanoq o'lchamlari normada. Homilaning taxminiy vazni 3500 gr. 1. Nima kilishingiz kerak?.

2. Qanday maslaxat berasiz?
3. Tug'ruq rejasi qanday bo'lishi kerak?
4. Qanday qo'shimcha tekshiruvlarni qilish kerak?

5. Akusherlik taktikasi nimalardan iborat?

12 - Vaziyatli masala.

Bemor V., 26 yashar, jinsiy yo‘llaridan qon aralash ajralma kelishi, qorni pastida og‘riq borligi va tana temperaturasini 38° gacha ko‘tarilganligidan shikoyat qilib, 2021 yil 3 dekabrda ayollar maslaxatxonasiga murojaat qilgan.

Ushbu kasallik tarixi. Bemor keyingi yillarda hayz sikli buzilishini boshidan kechiradi. Vrachga murojaat qilmagan. Bir hafta ilgari o‘zini yomon xis qilgan, titroq turgan temperaturasi 38,2° gacha ko‘tarilgan. Kasal o‘zini shamollagan sanab preparatlar qabul qila boshlagan. Shu bilan bir vaqtda qorni pastida og‘riq turgan. Ertalabga borib temperaturasi subfebril darajagacha tushgan va keyingi kunlarga shu darajada saqlanib turgan, qorni pastidagi og‘riq bosilgan, vaqti-vaqti bilan to‘lgoqsimon og‘rigan. 3- dekabr kuni og‘riq zo‘raygan, temperaturasi 38° gacha ko‘tarilib ketganligidan jinsiy yo‘llaridan qon kela boshlagach bemor tibbiyot yordamida murojaat qilgan.

To‘g‘ri ichak orqali tekshirish. Bachadon bo‘yni silindr shaklida, bir qadar qizargan. Bachadon 10 xaftalik xomiladorlikka esa keladigan darajada kattalashgan, to‘g‘ri vaziyatda, zich, yuzasi notekis, palpatsiya qilinganda biroz og‘riq sezadi, ortiqlarsiz palpatsiya qilinmaydi, ular soxasi og‘riqsiz. Parametriy patologik o‘zgarishlarsiz.

Ko‘zdan kechirib ko‘rilganda qin daxlizidagi iffat pardasi butun, teshigiga barmoq uchi kiradi, qinidan hidli picha qoramtir qon aralash ajralma kelib turibdi.

1.Hamshira taktikasi? 2.Xamshira(Akusher)lik tashxisini quyung? 3. Qanday tekshiruvlar qilinadi?4.Xamshiralik parvarish rejasi qanday? 5.Xamshiralik parvarishi kerak?

13 - Vaziyatli masala.

Qayta tuguvchi 38-xaftali xomiladorlik bilan ayol xamshiraga murojaat qildi.Tashqi tekshirib ko‘rilganda ayol qorni xomiladorlik xisobiga kattalashgan, ovoid shaklida. Xomila buylama joylashgan, oldinda joylashgan kismi - boshi.Dard faoliyati – xar 10 dakikada 3 marta dard tutayapti, uning davomiyligi 40 soniya. Dard boshlanganligi 3 soat bo‘lgan. Qoqonok pardasi yirtilmagan. Ayolning umumiy axvoli qoniqarli, tomir urishi daqiqasiga - 80 marta, kon bosimi 110/70 mm simob ustuniga teng.Qin orkali tekshirib ko‘rilganda bachadon buyni tekislangan, kanali 4 sm-cha kengaygan.

Savol :

- 1.Akusherlik tashxisi.
- 2.Akusherkani taktikasi.
- 3.Parvarish rejasi.
- 4.Qanday monitoring qilish kerak?
5. Tugruqning nechanchi davri

14 - Vaziyatli masala.

2026 yilning 25 mayida OShPga 26 yoshli tugayotgan ayol keltirildi. Ushbu xomiladorligi 2-chi. Oxirgi xayzi 2025 yil 23 avgust. Avvalgi xomiladorligi 7-8 xaftada o'z-o'zidan tushgan, bachadon ichi tozalangan. Tashki tekshirish utkazilganda: Dard davomiyligi 45–50 s., xar 1-2 daqiqada; bachadon xajmi yetilgan xomiladorlikni ko'rsatiladi. Xomila joylashi bo'ylama. Xomilaning oldingi joylashgan qismi boshi. Xomila pardasi 1,5 soat avval yorilgan. Xomila yurak urishi daqiqasiga 140 marta, ritmik. Qin orqali ko'rilganda: bachadon bo'yni to'la ochiq, xomila pardasi yo'q, xomila boshi chanoqning tekisligida.

Savol :

1. Akusherlik tashxisi.
2. Xomiladorlikni nechanchi haftasi?
3. Parvarish rejasi.
4. Qanday monitoring qilish kerak?
5. Tugruqning nechanchi davri?

15. Vazivatli masala

Takror 5 marta tuqqan ayol, emizikli bolasi 2 oylik, ayollar maslaxatxonasiga murojaat qilib keldi. Umumiy axvoli qoniqarli. Teri va shilliq qavatlarining rangi oqargan. Puls - 68 marta 1 daqiqada, to'lishuvi qoniqarli. A/B - 100/60 mm.sim.ust. teng. Akusherlik va ginekologik anamnezda mushkullik yo'q. 5 marta xomilador bo'lgan, 5 tirik bolasi bor. 4-bolasini emizib yurib, qorinda bola qimirlaganini sezdi, vrachga murojaat qilganda xomilasi 18 xaftalik va kamkonlikni o'rtacha og'ir formasi aniqlandi. Ayollar maslaxatxonasida kuzatilib, davolandi. Ushbu bolasini muddatida 3500gr, bo'yi 52sm tug'di. Tugruqda asoratlar kuzatilmadi. Tuqqandan so'ng xayzi kelgani yo'q. Bolasini faqat ko'proq suti bilan emizadi.

Ko'zgulalar va qin orqali tekshirishda patalogiya aniqlanmadi.

Savollar:

1. Sizning tashxisingiz?
2. Qanday kontratsepsiya usulini qo'llagan bo'lardingiz?
3. Akusherkaning taktikasi?
4. Laktatsion amenoreya deganda nima tushunasiz?
5. Emizikli ayollarga qanday kontratsepsiyani qo'llash afzal?

16 - Vaziyatli masala.

Tuqqan ayol bolasi 1 yosh 3 oylik, aralash ovqatlantiradi. Ayolning ushbu 1 ta bolasi bor. Bo'yida bo'lishdan saqlanish usullarini noto'g'ri foydalangani uchun, 2 oy oldin sun'iy abort bilan oldiradi. Ayolning o'zi va eri oliy o'quv yurtining aspiranturasida o'qiyapti. Uqishlari va ilmiy ishlarini tugatishi kerak. Bo'yida bulishdan saqlanishning ishonchli usulini qo'llashlari uchun vrachga muroiaat ailib keldi. Oxirgi xayzi 2 kun oldin boshlandi. Akusherlik tekshiruvda patologik holat topilmadi.

Savollar:

1. Sizning tashxisingiz?
2. Qanday kontratseptiya usulini qo'llaysiz?
3. Akusherkaning taktikasi?
4. Qanday labarator tekshiruvlar boshlash kerak?
5. Akusherka ayolni dispanser nazoratiga olishi qanchada bo'ladi?

17 - Vaziyatli masala.

Takror tuqqan ayolni, vrach ayollar maslahatxonasida tekshirib, BIV (bachadon ichi vositasi) muolajasini o'tkazishga bemorni tayyorlashni taxlillar o'tkazish va BIVni qo'yish uchun asboblarni tayyorlashni akusherka ta'kidladi.

Savollar:

1. BIV quyish uchun qanday taxlil va tekshiruvlar o'tkaziladi?
2. BIVni qo'yish uchun qanday asboblari kerak?
3. Akusherkaning taktikasi?
4. Akusherka ayolni dispanser nazoratiga olishi qanchada bo'ladi?
5. Parvarish rejasi.

18 - Vaziyatli masala

Bemor F, 30 yashar, qorni pastida va o'ng biqin sohasida burab og'rishi, ko'ngil aynishi va qusish kabi shikoyatlari bilan 2025 yil 20 oktabrda ayollar maslahatxonasiga keltirilgan.

19 oktabr kuni soppa-sog' yurib turganida qornida va o'ng yonbosh sohasida qattiq ogriq turgan. Ogriq chov soxasiga uzatilgan. Bir necha marta ko'ngli aynib qusgan. Temperaturasi $38,7^{\circ}$ gacha ko'tarilgan. Bir necha soatdan keyin ogriq bir qadar bosilganday bo'lgan (bemor 2 ta analgin tabletkasini ichgan), ammo yana zo'raygan. Kechasi ogriqdan yaxshi uxlay olmagan. 20 oktabrda ertalab yana qattiq ogriq xuruj qilgan, ikki marta qusgan.

qin orali tekshirish. Tashqi jinsiy organlari va qinida o'zgarishlar yo'q, bachadon bo'yni silindr shaklida, eroziyalanmagan. Tashqi bachadon bo'g'izida rangsiz shilliq ajralib turibdi. Bachadon kattalashmagan, konsistensiyasi odatdagiday, usti tekis; bachadonining o'ng ortiqlari sohasida joylashgan, yumaloq shaklga ega, usti tekis, zich-elastik konsistentsiyali, razmeri 10x14 sm keladigan o'sma bachadonni yuqoriga va picha chapga siqib surib qo'ygan. O'sma harakati chegaralangan, paypaslab ko'rilganida va siljitib ko'rilganida hatto bezillaydi. Chap ortiqlari bitishmalarda. To'g'ri ichak orqali tekshirish o'tkazib ko'rilganida ham shu xilda ma'lumotlar olindi.

qon analizi: N-12 g % (120 g/l), leykotsitlar- 12200 ($1,22 \cdot 10^{10}/l$).

1. Sizning tashxisingiz?
2. Sizning taktikangiz?
3. Kolposkopiya o'tkazish karakmi?
4. Gistologik va sitologik tekshirish uchun biopsiya olish nima uchun kerak?
5. Parvarish rejasini tuzing.

19 - Vaziyatli masala.

Bemor S. 28 yoshda, jinsiy yo‘llardan ajralma kelishi va achishish, tashqi jinsiy organlarning qizargani, shish borligidan shikoyat qilib 2026 yil 23 yanvarda ayollar maslahatxonasiga murojaat qilgan.

Kasallik tarixi: 22 yanvar kuni to‘satdan og‘rib qolgan. Jinsiy yo‘llardan ko‘plab suyuq ajralma kela boshlagan, bu - tashqi jinsiy organlarni qattiq qichitib, qizartirgan, ayniqsa qin dahlizi va katta, kichik uyatli lablar shishgan va qizargan. Tashqi jinsiy lablar siyganida achishadi. Natijada bemor tibbiy yordamga muxtoj bo‘lgan.

Qin orqali tekshirish: Tashqi jinsiy a‘zolari ko‘zdan kechirganda katta va kichik jinsiy lablar, qin dahlizi qizargan, shishgan. Shilliq pardalarning yuzasida nuqtasimon qontalashlar bor va gaz pufakchalar aralash oqish va yashilnamo ajralmalar kelib turibdi. Qin orqali tekshirganda og‘riq yo‘q.

SAVOL:

1. Hamshira taktikasi? 2. Xamshira (Akusher)lik tashxisini qo‘ying? 3. Qanday tekshiruvlar qilinadi? 4. Xamshiralik parvarish rejasi qanday? 5. Xamshiralik parvarishini ayting?

20 - Vaziyatli masala.

OShP ga murojaat, I xomiladorlik, 24 yoshda, parrandachilik fermasida veterinar feldsher. Anamnezidan: oxirgi xayz 2 oy oldin, jinsiy xayot 23 yoshidan. Ob‘ektiv tekshiruv: tanasini tuzilishi mu‘tadil. Ichki a‘zolar tomonidan uzgarishlar yo‘q. Akusherlik tekshiruvda 8 haftalik xomiladorlik aniqlandi. Savollar:

1. Keyingi tashrif qachon?
2. Temir preparatlarini tavsiya etasizmi?
3. Toksoplazmozga maxsus tekshirish shartmi?
4. Xavf omillari nimadan iborat?
5. Patronaj sifatida tekshirishga ko‘rsatmalar bormi?

21 - Vaziyatli masala.

Bemor V, 46 yashar, jinsiy yo‘llaridan qon aralash ko‘plab ajralma kelayotganidan shikoyat qilib, 2025 yil 9-dekabrda ayollar maslahatxonasiga murojaat qilgan.

Anamnezi. Tug‘ruqlar paytida bachadon bo‘yni yirtilgan va uni tikib qo‘yishgan. Oradan yarim yil o‘tganda bachadon bo‘ynida eroziya paydo bo‘lgan, buni ayollar maslahatxonasida ko‘zdan kechirish paytida payqab olingan. Bemor ayol 2 yil mobaynida (tanaffuslar bilan) qinga tampon qo‘yib davolanib yurgan, ammo nafi yaxshi bo‘lmagan. Eroziyani bundan 3 yil ilgari diatermokoagulyatsiya qilingan. So‘nggi yil davomida vaqti-vaqti bilan suyuq oqchil kelib bezovta qiladi, qo‘shni organlar funksiyasida o‘zgarishlar yo‘q.

Qin orqali tekshirish. Tashqi jinsiy organlari va qinida o‘zgarishlar yo‘q. Bachadon bo‘yni gipertrofiyalangan, ko‘zgu solib ko‘rilganda orqa labida kattaligi 4x3 sm bo‘lgan yara qayd qilinadi, yaraning chetlari notekis, paxta tampon bilan xiyol

tegilsa, qonab ketadi. Eroziya yaqinida shilliq parda yuzasidan ko‘tarilib turuvchi bir nechta oqish pilakchalar bor. Tashqi bo‘giz yoriqsimon, shilimshiq rangsiz ajralma kelib turibdi. Bachadon o‘lchamlari bir qadar kattalashgan, vaziyati to‘g‘ri, konsistensiyasi zichroq, yuzasi tekis harakatchan og‘riqsiz. O‘ng parametriyda bachadondan kichik chanoqning yon devoriga yo‘nalgan to‘qimalar bir qadar zichlashgan. qin gumbazining infiltrat ustidagi shilliq pardasi harakatchan. Rektovaginal tekshirishda ham shunday ma‘lumotlar olindi.

- 1.Sizning tashxisingiz?
- 2.Sizning taktikangiz?
- 3.Kolposkopiya o‘tkazish karakmi?
- 4.Gistologik va sitologik tekshirish uchun biopsiya olish nima uchun kerak?
- 5.Parvarish rejasini tuzing.

22 - Vaziyatli masala.

OShP akusherkasiga 28 yoshli xomilador olib kelindi. Ushbu xomiladorligi 3-chi, 39-40 xafta. Shikoyati – 3 soat davomida uni korin pasti soxasida va belida nomuntazam pastga tortuvchi va sust ogrikka. Tashki tekshirish utkazilganda xomiladorlik yetilganligi, bachadon kiskarishi aniklangan. Xomila uzunasiga joylashgan, oldindagi kismi xomila boshi. Xomil pardasi yirtilmagan. Xomila yurak urishi dakikada 148 marta, ritmik. Xomila kimirlashini sezadi. Kin orkali tekshirilganda – bachadon buyni yumshok, uzunligi 2,5 sm, bachadon boyni kanali 1,5 sm-cha ochiq, xomila pardasi butun, xomila boshi kichik chanoq tekisligida.

Savol :

- 1.Akusherlik tashxisi.
- 2.Akusherkani taktikasi.
- 3.Parvarish rejasini.
- 4.Qanday monitoring qilish kerak?
- 5.Tug‘ruq xabarchilariga nimalar kiradi?

23 - Vaziyatli masala.

Yangi tuqqan ayolning 5-kuni tana xarorati 38 S ko‘tarildi, oraliqdagi choklar orasida og‘riqlar paydo bo‘ldi. Genitalnyni ko‘rilganda oraliq sohasida choklar giperemiyasi va infiltratsiyasi, yiringln qoplam bilan qoplangan.

Savol: 1. Bemor muammosini aniqlang.

- 2.Hamshiralik tashxisini qo‘ying.
- 3.Tekshiruv rejasini.
- 4.Parvarish rejasini tuzing.
- 5.Sizningcha bemorda qanday kasallik simptomlari kuzatilmoqda.

24- Vaziyatli masala.

Tuqqan ayolning tug‘ruq yo‘llari tekshirilganda oraliqning 3- daraja yirtilishi aniqlangan.

1. 3- daraja yirtilishi deb nimaga aytiladi?
- 2.Yirtilish sabablari nimalar bo‘lishi mumkin?
- 3.Nima qilish kerak?

4. Tikish uchun qanday asboblarni tayyorlash kerak?

5. Parvarish rejasi nimalardan iborat?

25- Vaziyatli masala.

Birinchi marta xomilador bo'lgan ayol xomiladorlikning 36-chi haftasida tug'ruqxonaga keltirilgan. Tug'ruq faoliyati boshlanmagan, boshida va qorinning ustki sog'asida qattiq og'riq borligini, ko'z o'ngi xiralashganligidan shikoyat qilardi. Bemor 23 yoshda, aytilgan shikoyatlari bundan 3 soat oldin paydo bo'lgan edi. Ayollar maslaxatxonasi ma'lumotiga ko'ra, siydikda oqsil -3gr/l, bemor tug'ruqxonaga yotishdan qattiq bosh tortgan. Ob'ektiv tekshirganda: A/B- 160/100 sim. ust, R-90 marta, badanda shishlar borligi aniqlandi. Ko'p o'tmay titroq xurujlari paydo bo'ldi, xurujlar orasida es-xushi xiralasha boshladi. Chanoq o'lchamlari 25-28-31-19sm. Xomila bo'ylama vaziyatda, yurak urishi ritmik daqiqada 132 marotaba.

1. Taxminiy tashxisingiz?
2. Akusherlik taktikangiz?
3. Qanday tez tibbiy yordam ko'rsatasiz?
4. Xomilador ayolni kuzatishda qanday xatoga yo'l qo'yilgan?
5. Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?

26- Vaziyatli masala.

Yangi tuqqan ayolning tug'ruqdan keyin 3-kun bachadon subinvalyutsiyasi va gematometra aniqlandi. Bachadon bo'shlig'ni qirib tozalandi. 5-kuni uyiga javob berildi. Keyingn kuni kechqurun bachadondan qon ketib, shok xolatida ginekologiya bo'limiga olib kelindi. Bo'limda, abrasio cavi uteri operatsiyasi o'tkaziladi. Gemotransfuziya qilindi 750 ml yangi qon, shokka qarshi tadbirlar o'tkazildi. Keyingi kuzatuvda t 38°S. bachadon og'riqli, jinsiy yo'llardan yiringli ajratma aniqlandi. Intensiv terapiya foyda bermadi, xansirash, o'pkada xirillashlar qo'shildi.

Savol: 1. Bemor muammosini aniqlang.

2. Hamshiralik tashxisini qo'ying.
3. Tekshiruv rejasi.
4. Parvarish rejasini tuzing.
5. Shokka qarshi qanday tadbirlar o'tkazish mumkin?

27- Vaziyatli masala.

Bemor V. 30 yoshda. 4- xomiladorlik. Tibbiy markazda vazni 4.2 kg muddatiga yetgan bola tug'di. Bola tug'ilgandan keyin unga 10 birlik oksitotsin mushak orasiga

yuborilgan. Yoʻldosh 5 min dan keyin asoratsiz ajralgan. Birok bola tugilgandan 0.5 soatdan keyin unda kindan kuchli kon ketishi boshlangan. Puls 88 ta, AB 110/80 mm.sim.ust., HOC 18 ta, tana xarorati 37°S. Bachadon kattik, yaxshi kiskargan, yoʻldosh butun. Oralik jaroxati yoʻk. Kin va bachadon boʻynini tekshiruv davom etayotgan kuchli vaginal kon ketishi xisobiga kiyinlashgan. Shuning uchun bachadon boʻyni va qin yorilishi hali istisno qilinmadi.

- 1.Taxminiy tashxisingiz?
- 2.Akusherlik taktikangiz?
- 3.Qanday tez tibbiy yordam koʻrsatasiz?
4. Xomilador ayolni kuzatishda qanday xatoga yoʻl qoʻyilgan?
- 5.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?

28 - Vaziyatli masala.

Tugʻruq boʻlimiga 33 yoshli homilador ayol kelib tushdi. 6 soatdan soʻng tugʻruq kuzatildi. 5000.0 vaznli yetilgan tirik oʻgʻil tugʻildi. 15 min. dan soʻng mustakil ravishda yoʻldosh ajraldi va tugʻildi. Tugʻruqdan soʻnggi davrda tugʻruq yoʻllaridan qon ketish davom etayapti. Bachadon qisqargan.

- 1.Taxminiy tashxisingiz?
- 2.Akusherlik taktikangiz?
- 3.Qanday tez tibbiy yordam koʻrsatasiz?
- 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur?
5. Parvarish rejasi?

29 - Vaziyatli masala.

Kayta tuguvchi 38-xaftali xomiladorlik bilan ayol xamshiraga murojaat kildi.Tashqi tekshirib koʻrilganda ayol qʻorni xomiladorlik xisobiga kattalashgan, ovoid shaklida. Xomila boʻylama joylashgan, oldinda joylashgan qismi - boshi.Dard faoliyati – xar 10 daqiqada 3 marta dard tutayapti, uning davomiyligi 40 soniya. Dard boshlanganligi 3 soat boʻlgan. Qogʻonoq pardasi yirilmagan. Ayolning umumiy axvoli qoniqarli, tomir urishi daqiqasiga - 80 marta, qon bosimi 110/70 mm simob ustuniga teng.Qin orqali tekshirib koʻrilganda bachadon boʻyni tekislangan, kanali 4 sm-cha kengaygan.

Savol :

- 1.Akusherlik tashxisi.
- 2.Akusherkani taktikasi.
- 3.Parvarish rejasi.
- 4.Qanday monitoring qilish kerak?
5. Tugʻruqning nechanchi davri?

30 - Vaziyatli masala.

2026 yilning 25 mayida OShPga 26 yoshli tugʻayotgan ayol keltirildi. Ushbu xomiladorligi 2-chi. Oxirgi xayzi 2025 yil 23 avgust. Avvalgi xomiladorligi 7-8

xaftada o'z-o'zidan tushgan, bachadon ichi tozalangan. Tashqi tekshirish o'tkazilganda:

Dard davomiyligi 45–50 s., xar 1-2 daqiqada; bachadon xajmi yetilgan xomiladorlikni kursatadi. Xomila joylashi bo'ylama. Xomilaning oldingi joylashgan qismi boshi. Xomila pardasi 1,5 soat avval yorilgan. Xomila yurak urishi daqiqasiga 140 marta, ritmik. Qin orqali ko'rilganda: bachadon bo'yni to'la ochiq, xomila pardasi yo'q, xomila boshi chanoqning tekisligida.

Savol :

- 1.Akusherlik tashxisi.
- 2.Xomiladorlikni nechanchi haftasi?
- 3.Parvarish rejasi.
- 4.Qanday monitoring qilish kerak?
5. Tug'ruqning nechanchi davri?

31 - Vaziyatli masala.

48 yoshli ayolda profilaktika ko'rigidan o'tkazilganda bachadon bo'ynidan olingan surtma tekshirilganda atipik hujayralar borligi aniqlangan.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2.Havf omillaridan nimalarni so'rash kerak?

3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Parvarish rejasi.

32-Masala.

52 yoshdagi ayol qorin pastida ezuvchan doimiy og'riqlardan shikoyat qilib kelgan. hayz ko'rishi 13 yoshdan, muntazam har 21 kunda 7 kundan. 10 yil mobaynida surunkali gepatoxolestsistit kasaliga chalingan. Keyingi 15 yil ichida tana vaznining ancha oshganini sezdi. So'nggi ikki yil ichida hayz ko'rishi 1,5-2 oy ichida 10 kundan, juda ko'p keladi, ba'zida hayz ko'rish orasida qon aralash surtma keladi.

Ko'zgularda va qin orqali ko'rilganda bachadon bo'yni silindrsimon shaklda, tashqi og'zi tirqishsimon, bachadon tanasi juda zich, tashqi qavati notekis, kattaligi 8 haftalik homiladorlikka teng, anteverzio - antefleksio holatida turibdi. Bachadon ortiqlari o'zgarishsiz, chanoq devorlari bo'sh, oqmalar qon aralash, oz miqdorda.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2.Havf omillaridan nimalarni so'rash kerak?

3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Parvarish rejasi.

33-Masala.

Ayol 34 yoshda: qusish, ko'ngil aynishi, qornining o'ng tomonida birdan og'rik paydo bo'lishi shikoyati bilan ambulatoriyaga kelgan. Anamnezida

3 ta tug'ruq, 1 abort, BIV 5 yildan buyon bor. Obyektiv ko'rishda: teri va shilliq pardalari oq rangda, harorat 37,2, tili quruqroq, qornini paypaslanganda o'ng tomon pastida og'riq va Shyotkin- Blyumberg simptomi musbat. Siyishi normal, ichi qotmagan.

Ginekologik tekshiruv: tashqi jinsiy a'zolari normal rivojlangan. Ko'zguda: bachadon bo'yni silindrsimon shaklda, toza, ajralmalari shilimshiq, bo'g'zi berk. Bachadon o'lchamlari normal, anteverzio antefleksio joylashgan, harakatchan, og'riqsiz, chap ortiqlari aniqlanmaydi, o'ng tomonda o'lchamlari 15x12x13 sm, yumaloq, elastik konsistensiyali, tekis, harakatchan, og'rikli o'sma aniqlangan.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Parvarish rejasi. Qanday davolash kerak?

34-Masala.

68 yoshli ayolni qarindoshlari ginekolog maslahatiga olib kelishdi. Ayol ginekologga 8 yil mobaynida uchramagan. Menopauza 15 yil mobaynida. Jinsiy hayotni 25 yoshida boshlagan, 5ta xomiladorlik, 2ta tug'ruq, 3 ta abort. Obyektiv tekshirganda bemor to'g'ri tuzilishga ega.

Ovqatlanishi yaxshi, yurak tonlari bo'g'ik pulsi 1 daqiqada 80, bir maromda, qorin pastida yumaloq shish paypaslanadi, harakatchan, paypaslashda sezilarli, qornida assit bor.

Ginekologik statusi: tashqi jinsiy a'zolari normal holatda, ko'zguda bachadon bo'yni toza, bimanual ko'rikda bachadon bo'yni silindrsimon, bachadon antefleksiyada normadan biroz kattalashgan, chap tomonda 18x19x17 sm o'lchamdagi shish aniqlanadi, harakatchan, ta'sirchan, qattiqroq konsistensiyali, o'ng tarafda 6x8x8 sml o'sma bor. Orqa gumbaz biroz to'liklashgan, ajralma qonli rangda.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?

35-Masala

Bemor 25 yoshda, qorin pastida tutib-tutib og'riqqa shikoyat qilib OPga murojaat qildi. Angina bilan tez-tez og'rib turgan. 21 yoshidan jinsiy hayot boshlagan. 2 yildan keyin chaqaloqni oy kuniga to'lib asoratsiz tuqqan. Bir yil oldin sun'iy abort 8-9 haftalikda qilingan. Oxirgi hayzi 2 oy oldin bo'lgan.

Qin orqali tekshirish. Tashqi jinsiy a'zolari to'g'ri rivojlangan, qini tuqqan ayolnikiga mos. Bachadon bo'yni silindr shaklida, tashqi og'zi yoriqsimon shaklda. Bachadon diametrida 7-8 sm gacha kattalashgan, yumshoq, sharsimon. Bachadon ortiqlari kattalashmagan. Parametriysida infiltratlar yo'q, gumbazlari chuqur. Qin orqali o'rtacha miqdorda qonli ajralmalar aniqlandi.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?

36-Masala

Bemor 28 yoshda jinsiy yo'llaridan qon ketishi, qorin pastida og'riq va harorati 38°S ko'tarilganga shikoyat qildi. 3 kun oldin homiladorligining 10-11 haftaligida sun'iy abort qildirgan. Qin orqali tekshirish: bachadon bo'yni silindr shaklida, tashqi og'zi 1 sm gacha ochiq, bachadon 8 haftagacha kattalashgan, yumshoqroq, og'riqli. Bachadon ortiqlari kattalashmagan. Parametriysida infiltratlar yo'q, gumbazlari chuqur. Qin orqali o'rtacha miqdorda qonli ajralmalar aniqlandi.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday laborator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?

37-Masala

Qayta tug'uvchi 26 yoshdagi ayol. III homiladorlik, III tug'ruq. Tug'ruqda 20 soatdan beri. 22 soat avval suvlar ketgan;

Tana xarorati 38,8, titroq, yiringli ajralmalar. Surtma taxlilida leykotsitlar ko'p miqdorda. Chanok o'lchamlari: 26, 27, 31, 21. Homila joylashuvi bo'ylama, oldinda keluvchi qismi boshcha. Boshcha chanokka taqalgan. Homila boshchasining bipariyetal o'lchami 12 sm. Vasten belgisi +. Kontraksion halqa simfiz va kiyshik joylashgan. Homila yurak urishi minutiga 160 marta, bo'g'iklashgan.

P.V. Bachadon bo'yni to'lik ochilgan. kog'anok pardasi yo'k, xomila boshchasi chanoqqa kirish kismiga taqalgan, boshchada tug'ruk shishi. Diagonal konyugata 10 sm.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo'yasiz. 5. Tug'ruqni qanday olib boriladi?

38-Masala

Qayta tug'uvchi 28 yoshdagi ayol. II xomiladorlik, II tug'ruq. Chanoq o'lchamlari: 23, 26, 29, 18; QA 107 sm. BTB 35 sm. Homila joylashuvi bo'ylama, oldinda keluvchi qismi boshcha. Homila yurak urishi minutiga 136 marta, aniq. Suvsizlik davri 5 soatni tashkil qiladi.

P.V. Bachadon bo'yni to'liq ochilgan, qog'anoq pardasi yo'q, xomila boshchasi chanoq kirish qismiga yaxshi taqalgan. O'q-yoysimon chok chanoqqa kirish qismida to'g'ri o'lchamida, kichik liqildoq dumg'azaga qaragan. Diagonal konyugata 11 sm.

Savol: 1)Taxminiy tashxis nima? 2)Tug‘ruqni qanday olib boriladi? 3) Akusherlik rejasi qanday? 4) Qanday belgilarga qarab tashxis qo‘yasiz. 5)Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar?

39-Masala

26 yoshdagi tug‘uvchi ayol tug‘ruqning I davrida qabul qilindi. II tug‘ruq. 1 tug‘ruq homila o‘limi bilan tugallangan. Mixaelis rombi yassilashgan. Chanoq o‘lchamlari: 26, 26, 31, 17. Solovyev indeksi 15 sm. To‘lg‘oqlar kuchli, xar 2 minutda 40-45 sekunddan. Sangemenster o‘lchami 17 CM.

P.V. Bachadon bo‘yni 8 sm ochiq. Qog‘anoq pufagi aniqlandi. Xomila boshchasi chanoqqa taqalgan. Diagonal konyugata 10,5 sm.

Savol: 1) Diagnozingiz? 2) Tug‘ruqni olib borish rejasi? 3) Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar? 4) Akusherlik taktikasi? 5) Partogramma qachon yuritiladi.

40-Masala

Birinchi tug‘uvchi ayol. 28 yoshda, chanoq o‘lchamlari: 25, 28, 31, 18. Solovyev indeksi 14 sm. Homilaning taxminiy vazni 3000 g. Homila joylashuvi bo‘ylama, birinchi pozitsiya, oldinda boshcha. To‘lg‘oqlar xar 12 minutda. kuchli. 40 sekunddan. Suvlar 1 soat avval ketdi.

P.V. Bachadon bo‘yni silliqlashgan, chetlari yumshoq, og‘zi 10 sm ochiq. Qog‘anoq pardasi yo‘q. Homila boshchasi kichik segmenti bilan kichik chanoqda, o‘q-yoysimon chok ko‘ndalang o‘lchamda. promontornyga yaqin. Kichik liqildoq katta liqildoq bilan bir tekislikda. Diagonal konyugata 11 sm.

Savol: 1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo‘yasiz. 5. Tug‘ruqni qanday olib boriladi?

41- masala

Qayta tug‘uvchi ayol 26 yosh, tug‘ruqning birinchi davrida kelgan. Tug‘ruq ikkinchi. Birinchi xomiladorlikdan o‘lik xomila tug‘ilishi kuzatilgan. Mixaelis rombi yassilashgan. Chanok o‘lchamlari 26, 26, 31, 17. Solovyov indeksi 15 sm. Kuchaniq xar 2 minutda 40-45 sekunddan. Sangemeyster o‘lchami 17 sm. Ochilishi 8sm. qog‘anoq pufagi butun. Xomila boshi kichik chanoq kirish qismiga taqalgan. Diagonal konyugata 10,5sm.

Savol: 1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo‘yasiz. 5. Tug‘ruqni qanday olib boriladi?

42-Masala

Homiladorlik patologiyasi bo‘limiga 26 yoshli xomilador kelgan. Homiladorlik vaqti 38 xafta. Chanoq o‘lchamlari 23, 26, 29, 18 sm. Diagonal konyugata 11 sm, exografiya

ko'rsatgichlari xomila bosh xolatida, taxminiy vazni 2300gr. Bachadon tubida yo'ldosh yetilishining 3 darajasi. Doplerometriyada qon aylanishi sistemasi ona yo'ldosh xomila II darajali buzilishi, kamsuvliliklari aniqlangan.

Savol: 1. Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3. Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo'yasiz. 5. Tug'ruqni qanday olib boriladi?

43 masala

34 yoshli tug'uvchi ayol. III xomiladorlik, II tug'ruq. I xomiladorlik 3 yil avval tug'ruq qiyin kechganligi sababli o'lik xomila tug'ilishi bilan tugallangan. Homila vazni 3400 gr, miyaga qon quyilgan. II homiladorlik 1 yildan keyin abort bilan tugallangan. Hozirgi xomiladorlik anamneziga ko'ra vaqtdan o'tgan. Chanoq o'lchamlari 27, 28, 30, 17,5. Mixaelis rombining yuqori burchagi yassilashgan.

P.V. Bachadon bo'yni to'la ochiq, homila boshchasi chanoqqa taqalgan. O'q-yoysimon chok ko'ndalang o'lchamda, kichik liqildoq chapda, katta liqildoq o'ngda. Diagonal konyugata 10,5 sm. Vasten belgisi +. Tug'ruq faoliyatida 2 soat ichida xomila boshchasi konfiguratsiyasi kuzatilmadi.

Savol: 1. Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3. Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo'yasiz. 5. Tug'ruq nima bilan tugallanadi

44-Masala

Muddatli tuqqan, katta xomila, vazni 4300 gr. Tug'ishning III davri 10 daqiqa davom etadi. Yo'ldoshning to'liq ajralish alomatlari yo'q. Qon yo'qotgan 250 ml ga yetdi. Qon oqishi davom etayapti.

Savol: 1) Taxminiy tashxis nima? 2) Akusherlik taktikasi? 3) Diaqnoz? 4) Nima kilish kerak? 5) Qanday belgilarga qarab tashxis qo'yasiz.

45-Masala

Tug'adigan ayol tug'ishning 2 davrida 1 soatdan buyon turibdi. 5 xomiladorlik, 4 tug'ish. Xomilaning taxminiy massasi 4200 gr. Homila yurak urishi ritmik. Soni 160 min. To'lg'oqning kuchanish xarakteri xar 3 dakikada 35-40 sek. davom etadi. Chanoq o'lchamlari 25, 28, 31, 20 sm. Qin tekshiruvda bachadon ogzi to'la ochiq. Homila boshi kichik chanoqqa kirayapti. Xomila kalla suyaklari zich, choki va chuqurchalari yaxshi bilinmaydi. Chanoq dumgaza do'mbog'iga yetib bo'lmaydi, suv ketayapti, chiqindilar bilan aralashgan.

Savol: 1. Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3. Akusherlik rejasi qanday? 4. Qanday belgilarga qarab tashxis qo'yasiz. 5. Tug'ruq nima bilan tugallanadi

46-Masala

Xomila 5 hafta oldin nobud bo'lgan. Tug'ruq 38 hafta xomiladorlikda o'lik xomila bilan. Yo'ldosh mustaqil ko'chib va ajralib chiqdi. Yo'ldosh pardalari butun.

Yo‘ldosh tug‘ilgandan so‘ng qon ketish boshlandi. Bachadon qattiq. Jinsiy yo‘llar orqali chiqayotgan qon ivimayapti. Probirkaga venadan olingan qon 15 min dan so‘ng xam quyulmayapti.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday labarator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?

47-Masala

Homilador ayol 21 yosh, birinchi tug‘ruq, tuqqandan so‘ng 15 daqiqadan keyin yo‘ldosh ajraldi va tug‘ildi. Parda va bo‘laklari xammasi butun. Qon ketish kuzatildi.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday labarator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?

48-Masala

Birinchi xomilador ayol tug‘ruqning ikkinchi davrida keldi. Yo‘ldosh tug‘ilgandan so‘ng qon ketish kuzatildi.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday labarator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?

49-Masala

29 yoshli xomilador ayolda muddatli tug‘ruq bo‘ldi. Uchinchi davridan keyin ko‘p qon ketish kuzatildi. Yo‘ldosh va yumshoq to‘qimalari butun. Uterotoniklar yuborildi,qon ketish davom etayapti.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday labarator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?

50-Masala

30 yoshli I. ismli homilador ayol tug‘ruqxonaga I davr oxirida keltirildi. Anamnezida 1 tug‘ruq va 4 sun‘iy abort, oxirgisi bachadon devorlarini qirish bilan asoratlangan. Ushbu xomiladorlik 6 chi. 1 soatdan so‘ng tirik yetilgan qiz tugildi, vazni 3500, uzunligi 50 sm, Apgar shkalasi bo‘yicha 8-9 ball. III davrda yo‘ldosh ajralish belgilari bo‘lmasdan qon ketish kuzatilganligi sababli bachadon bo‘shlig‘i va devorlari qo‘l bilan tekshirildi va platsentaning qisman chin o‘sganligi aniqlandi.

Savol :1.Taxminiy tashxis nima? 2. Akusherlik taktikasi? 3.Xamshira rejasi qanday? 4.Qanday labarator tekshiruvlar qilish zarur? 5.Kasallikni kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?

6.5.Amaliy ko‘nikmalarni baholash bo‘yicha topshiriqlar ro‘yxati:

- 1.Anamnez yig‘ish
- 2.Qo‘llarga gigiyenik ishlov berish;

- 3.Arterial qon bosimini o'lchash;
- 4.Pulsni o'lchash;
- 5.Nafas sonini sanash;
- 6.Tana haroratini o'lchash;
- 7.Homilador ayol vaznini aniqlash.
- 8.Ayol chanog'ini o'lchash.
- 9.Qin orqali ikki qo'llab tekshirish.
10. Qinni ko'zgular yordamida tekshirish;
11. Qin tozalik darajasini aniqlash;
- 12.BIV qo'yish texnikasi;(copper T 380a)
- 13.Ishlatilgan tibbiy asbob-anjomlarni zararsizlantirish;
14. Homilador ayolning bachadon tubi balandligi o'lchash;
- 15.Homilador ayolni qorin aylanasini aniqlash
- 16.Homilador ayolni Leopold-Levitskiy usuli bo'yicha tashqi akusherlik tekshiruvidan o'tkazish;
- 17.Homiladorlik va taxminiy tug'ruq muddatini aniqlash;
- 18.Homilaning yurak urishini eshitish.
- 19.Homilaning taxminiy vaznini aniqlash
- 20.Tug'ruq jarayonini olib borish;
- 21.Qindikka birlamchi ishlov berish;
- 22.Chaqaloq holatini Apgar shkalasi bo'yicha baholash
- 23.Yangi tug'ilgan chaqaloq ko'zlariga ishlov berish;
- 24.Tug'ruqni 3 -davrini faol olib borish;
- 25.Ko'krakka birlamchi tutish.
- 26.Tuqqan ayolni va uning sut bezlarini parvarishlash.
- 27.Ajralib chiqqan yo'ldosh butunligini tekshirish;
- 28.Yo'qotilgan qon miqdorini aniqlash;
- 29.Siydik pufagini katetrlash.
- 30.Tizimni eritma yuborishga tayyorlash;
- 31.Tug'ruqdan so'ng bachadon tubini aniqlash;
- 32.Qorin aortasini musht bilan bosish;
- 33.Bachadonni bimanual kompressiyasi;
- 34.Yangi tug'ilgan chaqaloq antropometriyasini o'tkazish: ko'krak qafasi, bosh aylanasi, bo'yini o'lchash;
- 35.Yangi tug'ilgan chaqaloq vaznini tortish;
- 36.Yangi tug'ilgan chaqaloqning ko'zlariga ishlov berish;
- 37.Qindik qoldig'ini dastlabki ishlovdan o'tkazish va parvarish qilish;
- 38.Chaqaloqni tana haroratini saqlash(«kenguru» usuli, «terini–teriga» kontakti)“Kenguru” usulini amalga oshirish
- 39.Yangi tug'ilgan chaqaloqni ona ko'kragiga tutish;
- 40.Muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni zond orqali ovqatlantirish;
- 40.Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni reanimatsiya qilish.
- 41.Bazal haroratni o'lchash.
- 42.Tashqi jinsiy a'zolari ko'zdan kechirish;

43. Qindan gormonal holatini aniqlash uchun surtma olish;
44. Qin tozalik darajasini aniqlash;
45. Bakteriologik tekshirish uchun qindan surtma olish;
46. Spermogramma uchun sperma yig'ish.
47. Ishlatilgan tibbiy asbob - anjomlarni zararsizlantirish;
48. Sitologik tekshirishga surtma olish;
49. Ko'krak bezlari palpatsiyasi;
50. Bachadon bo'ynidan biopsiya olish
51. Kolposkopiya o'tkazishga ayolni tayyorlash
52. Qon ketishni vaqtinchalik to'xtatish
53. Qon ketishini uzil-kesil to'xtatish
54. Xushdan ketganda shoshilinch yordam algoritmi
55. Kuyishlarda shoshilinch yordam algoritmi
56. Suvga cho'kganda shoshilinch yordam algoritmi
57. Elektrotravmada shoshilinch yordam algoritmi
58. Kon aylanish va nafas to'xtaganda o'pka-yurak reanimatsiyasi
59. "Og'izdan-og'izga" nafas berish metodikasi.

1. Ayoldan anamnez yig'ish.

1. Pasport qismi: familiyasi, otasining ismi, yoshi, ish joyi va kasbi, yashash joyi.
2. Shikoyatlar, ya'ni ayolning nima sababdan tibbiy yordam so'rab murojaat qilish sababi
3. Irsiyati va boshidan kechirgan kasalliklari.
4. Hayz funksiyasi:
 - birinchi hayz ko'rish qaysi yoshda boshlangan
 - hayz ko'rish turi
 - jinsiy hayot boshlagandan keyin, tug'ruq yoki abortlardan so'ng hayz ko'rishdagi o'zgarishlar
 - oxirgi hayzning muddati
5. Jinsiy va sekretor funktsiya, bunda jinsiy a'zoldan chiqayotgan ajralma xarakteri, og'riqlar bor-yo'qligi.
6. Bola tug'ish funksiyasi, bunda quyidagilarga e'tibor qilinadi:
 - necha marta homilador bo'lgan
 - oldingi homiladorlikning kechishi va tugallanishi
7. Jinsiy hayot boshlagandan to birinchi homiladorlikkacha bo'lgan oraliq muddat.
8. Turmush o'rtog'ining sog'lig'i haqidagi ma'lumot olinadi.
9. Homiladorning salomatlik darajasini belgilashda yashash va ishlash sharoiti, so'rab-surishtirishdan keyin obektiv tekshirishga o'tiladi.

2. QO'LLARGA GIGIYENIK ISHLOV BERISH;

1. Qo'llarni iliq suv bilan xo'llanadi.
2. 1-2 tomchi suyuq sovundan tomiziladi.
3. Kaftlarni ko'pik paydo bo'lguncha kamida 15-20 soniya bir biriga ishqalanadi. Barmoqlarni bir biriga qovushtirgan holda kaftni kaftga ishqalanadi.
4. Qo'l barmoqlarini «Qulf»ga olib, har bir barmoq uchlarini ishqalanadi.

5. Chap qo‘l bosh barmog‘ini o‘ng qo‘lning kafti bilan aylanma harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.

6. O‘ng qo‘l barmoqlarini yiqqan xolda chap qo‘l kaftiga qo‘yib, aylanma harakatlar qilinadi va aksincha.

7. Qo‘llarni oqar suvda yaxshilab chayiladi.

8. Qo‘llar sochiq bilan yaxshilab quritiladi. Shu sochiq yordamida kran o‘chiriladi.

Eslatma: qo‘lni bunday zararsizlantirish, mijozlarni tekshirish yoki parvarishlashdan avval, muolajalarni bajarishdan oldin qilinadi;

3. ARTERIAL QON BOSIMINI O‘LCHASH;

Kerakli jihozlar: tonometr, fonendoskop, bemorning shaxsiy kartasi yoki tarixi, 0,5 % li xloramin eritmasi, sochiq yoki salfetka.

Muolajani bajarish:

1. Arterial bosimni o‘lchash uchun ayol yotgan yoki o‘tirgan xolatda bo‘ladi.

2. Bemorning chap qo‘li yelkasigacha ochiladi.

3. Bemorning qo‘li krovatga yotgan yoki stulga o‘tirgan xolda kaft yuqoriga qilib qo‘yiladi.

4. Tanometr manjetining havo yuborish naychasi pastga qaratib olinadi.

5. Bemorning qo‘liga tirsak bo‘g‘imidan 2-3 sm yuqoridan manjet sal bo‘shroq qilib o‘raladi. 2-3 barmoqlar yordamida bemorning tirsak bo‘g‘imidan yelka arteriyasining urishi topiladi.

6. Tomir urgan joyga fonendoskopni bosmasdan qo‘yilib, eshituv naychasi quloqqa ulanadi. Vintni berkitib ballon yordamida manjetkaga havo yuboriladi.

7. Vint seQinlik bilan ochilib, havo chiqariladi. Havo chiqarish bilan fonendoskopdan arteriya devorlaridan tomir urishi eshutiladi – bu sistolik bosim. Keyinchalik havo chiqishi davomida tovushlar to‘xtaydi – bu diastolik bosim. Tovushlarning eshutilgan va eshutilmasdan qolgan joylaridagi sonlar yozib olinadi. Vint to‘liq ochilib, manjetka ichidagi havo chiqariladi.

8. Manjetka monometr ulangan rezina naychadan ajratiladi.

9. Manjetka bemor biligidan olinadi.

10. Arterial bosim homilador ayollarda har ikkala qo‘lda o‘lchanadi. Olingan ma‘lumotlar shaxsiy varaqasiga yoziladi.

Eslatma: Yurakning qisqarishi va bo‘shashi natijasida qonning tomir devorlariga ko‘rsatilgan bosimi A/B deyiladi. Qon bosimini bir vaqtda qayta-qayta ko‘tarib tushirib o‘lchab bo‘lmaydi, sababi A/B ning ko‘rsatgichi o‘zgaradi.

4. PULSNI O‘LCHASH;

Kerakli jihozlar: sekundomerli soat, ruchka, tomir urishning grafik tasvirini qayd qiluvchi kasallik tarixi, sochiq yoki salfetka.

Muolajani bajarish bosqichlari:

1. Pulsni bilak oldi yuzasida bir barmoq asosida bilan arteriyasidan aniqlaniladi.

2. Muskullar va paylar tarangligi paypaslashga xalaqit bermasligi uchun ayolning qo‘li bo‘sh qo‘yiladi.

3. Tekshiruvchi ayolning qo‘lini o‘ng qo‘lning barmoqlari bilan bilak – kaft bo‘g‘imi sohasida bo‘shgina ushlanadi va o‘ng qo‘l bilan tekshiruvchining yuragi satxiga qo‘yiladi.

4. Birinchi barmoqni tirsak tomoniga, 2-3-4 barmoqlar esa bilak tomoniga bosiladi.
 5. Pulsatsiya qilayotgan arteriyani uchala barmoq bilan paypaslab, uni bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi.
 6. Tomir urishini kamida 30 sekund sanab, olingan raqam 2 ga ko'paytiriladi.
- Eslatma:** Pulsning seQinlashuvi bradikordiya, tezlashuvi taxikardiya deyiladi.
- Pulsni – chakka, son va uyqu arteriyasidan aniqlash mumQin.
- Pulsni tezlashganligi ko'p xolatlarda ichki a'zolarida qon ketayotganligini yoki xaroratni ko'tarilganligini bildiradi.

5.NAFAS SONINI SANASH;

Kerakli jihozlar: sekundomer, gemodinamika varaqasi,

Muolajani bajarish bosqichlari;

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
5. Nafasni sanash uchun bemor krovatga o'tirgan yoki yotgan bo'lishi kerak.
6. Bemor oldida joylashib o'tiriladi va bemorni chalg'itish uchun uning qo'lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi.
7. Hamshira qo'lini bemorning bilagidan ushlab, agar ko'krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo'lsa bemorning ko'krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo'ygandek qo'yadi.
8. Nafas olishni sekundomerdan foydalangan holda sanaladi.
9. Nafas olishni sanalganda uning maromini, sonini, chuqurligini va tipini baholanadi.
10. Nafas harakatlari 1 daqiqa davomida sanaladi.
11. Natija baholanadi va bemorga tanishtiriladi.
12. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
13. Ko'rsatkichlar gemodinamika varaqasiga kiritiladi.

6.TANA HARORATINI O'LCHASH;

Kerakli jihozlar: termometr, sekundomer, gemodinamika varaqasi, suyuq sovun – 1ml, qog'oz sochiq – 20 sm, steril qo'lqop – 1 ta, 70 % li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha

Muolajani bajarish bosqichlari:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Termometr quritib artiladi va ko'rsatgichi 34-35° S gacha silkitib tushiriladi.
7. Bemorni qulay vaziyatda joylashtiriladi (stulga o'tkaziladi yoki kushetkaga yotqiziladi).
8. Bemorning qo'litiq osti sohasi ko'zdan kechiriladi.

9. Bemorning qoʻltiq osti quruq sochiqda artiladi (qoʻltiq ostida monelik qiladigan holat boʻlmasligi kerak).
10. Termometrni simob rezervuari teriga hamma tomondan tegib turadigan qilib qoʻltigʻi ostiga qoʻyiladi.
11. Bemor qoʻlini koʻkrak qafasiga yaqinlashtirib qisib turadi.
12. Termometrni qoʻyilgan vaqti belgilanadi.
13. Tana harorati oʻlchash muddati 10 daqiqa.
14. Tekshiruv natijasi bemorga tanishtiriladi.
15. Termometr koʻrsatgichi gemodinamika varaqasiga qayd etiladi.
16. Termometr yuqumsizlantiriladi (1% xloromin eritmasiga 20-30 daqiqaga toʻliq choʻktiriladi).
17. Termometr yuqumsizlantiruvchi eritmadan olinadi, oqar suvda chayiladi va quritiladi.
18. Termometr koʻrsatgichi simob rezervuarigacha silkitib tushiriladi.
19. Termometr idishiga solib qoʻyiladi.
20. Hamshira qoʻllari yuviladi va quritiladi

7.HOMILADOR AYOL VAZNINI ANIQLASH.

Kerakli jihozlar:tibbiy tarozi, dezinfeksiyalovchi eritma va dinamik varaqa.

Muolajani bajarish bosqichi:

1. Tibbiy tarozi muvozanatga keltiriladi.
2. Ayol ustki kiyimlari yechintiriladi.
3. Ayol tarozi maydonchasining oʻrtasiga zatvorning koʻtarib qoʻyilgan xolatida extiyotlik bilan chiqariladi.
4. Ayolni qattiq silQinib ketishdan saqlash lozim.
5. Muvozanat xolati yuzaga keltirilgan zatvor pastga tushiriladi.
6. Gavda massasini tarozi pastki va yuqoriga plankalarda yuklar toʻxtagan boʻlimlarining ikkita soni yigʻindisi boʻyicha aniqlanadi.
7. Oʻlchangandan olingan maʼlumot dinamik varaqasiga belgilanadi.
8. Tarozi dezinfeksiya eritma bilan artiladi.

Eslatma: Homiladorlikda ayolning tana vazni ortib boradi. Tana vazniga bir xaftada 300-400 gramdan qoʻshiladi. Butun homiladorlik davrida tana vazniga normada 10-11 kg qoʻshiladi.

8.AYOL CHANOGʻI OʻLCHAMLARINI OʻLCHASH;

Maksad: Ayol chanogʻi oʻlchamlarini oʻlchash

Kursatma: xomiladorlik vaqtida, tugʻruqdan oldin

Kerakli asboblari: tazomer, fantom, xomilador ayol

Bajarish boskichlari:

Akusherka xomiladorning oʻng yonida turadi, xomiladorga qaragan xolda katta va kursatkich barmoq bilan tazomer tugmachasini ushlab turadi. 3-4 barmoq bilan oʻlchanadigan suyak nuqtasi aniqlanadi va tazomer tugmachasi shu yerga oʻrnatiladi. *Distantia spinarum* - tazomer tugmachasini chanoq suyagining old yuqori qirrasining tashqi chegarasiga qoʻyiladi. Bu oʻlcham 25-26 sm. *Distantia cristarum* – tazomer tugmachasini yonbosh suyak, tashki chegaralari buylab surib boriladi, bunda eng katta

oralig'iga masofa aniqlanadi. Bu o'lcham 28-29 sm *Distantia trochanterica* – katta ko'st suyagini aniqlab unga tazomer tugmachasini qo'yamiz. Bu o'lcham 30-31 sm.

Conjugata externa- tashqi konyugatani o'lchash uchun tekshirilayotgan ayol yon boshiga o'girilib pastki oyogi bukilgan, tashki oyogi yozilgan xolda yotadi. Tazomer tugmachasini orqada V bel umurtqasi va I dumgaza suyakni o'simtasi oralig'iga qo'yiladi (dumg'aza chuqurchasi) oldindan qov suyagi birikkan joyida tashqi chegarasiga qo'yiladi. Tashqi konyugata 20-21 sm teng.

9.QIN ORQALI IKKI QO'LLAB(bimanual) TEKSHIRISH;

Maksad: Bu tashqi ginekologik tekshiruvni bachadon bo'yni tuzilishi, bachadon xarakatchanligi, og'riqligi, tuxumdonlar holatini tekshirishga yordam beradi

Ko'rsatma: ginekologik tekshiruvlarda

Kerakli jixozlar: fantom, ginekologik kreslo, steril qo'lqop

Bajarilish bosqichlari:

Ayol ginekologik kresloga chalkanchasiga yotadi. Tekshiruvchi ikkala kuliga steril kulkoplar kiyadi. Tashki jinsiy a'zolar antiseptik eritma bilan artiladi. Chap kulning katta va kursatkich barmoklari yordamida jinsiy yorik ochiladi va ung kulning kursatkich va urta barmoklari birlashtirilgan xolatda Qinga kiritiladi. Kursatkich va bosh barmok bilan bartolin bezlari paypaslab kuriladi, sungra Qin yukori devori orkali uretra paypaslanadi. Bachadon buynining Qin qism i paypaslanadi, uning konsistensiyasi, shakli, tashki teshik xolati, xarakatchanligi va Chanoq ukiga munosabati aniklanadi. Bachadon paypaslanadi, bunda ikkala barmok orka gumbazga kiritiladi, chap kul oldingi korin devori orkali bachadon tanasi topiladi, uning kattaligi, konsistensiyasi, xarakatchanligi, xolati, ogrikliligi aniklanadi. Bachadon ortiklarini paypaslashda barmoklar yonbosh gumbazlar soxasiga utkaziladi, bunda bachadon ortiklarining xolati, ogrikliligi va xarakatchanligi aniklanadi. Bachadon boylamlari paypaslanadi. Qin gumbazlarining xolati aniklanadi. Kulkoplar yechilib dezinfeksiyalovchi eritmaga tashlanadi.

10.QINNI KO'ZGULAR YORDAMIDA TEKSHIRISH;

Maksad: tashqi ginekologik tekshiruvni bachadon bo'yni va qin devori tuzilishi, rangini, ajralmalar va xolatini tekshirishga yordam beradi

Ko'rsatma: Ginekologik tekshiruvlarda

Kerakli jixozlar: fantom, kushetka, qin ko'zgulari , steril qo'lqop

Bajarilish bosqichlari:Ayolni qovug'ini bo'shatib kelishini tavsiya qilamiz, so'ngra bemordan ginekologik kresloga yotishni so'raladi. Ikkala qo'lga sterillangan rezina qo'lqop kiyiladi. O'ng qo'lga qin ko'zgusi olinadi, chap qo'lning ko'rsatkich va bosh barmoqlari yordamida jinsiy lablar ochiladi. Kuzgu vertikal xolatda qinga kiritiladi va seQin asta ichkariga xarakatlantirib gorizontal xolatga o'tkaziladi qinning yuqori devori ko'tariladi, qin devorlari va bachadon bo'ynini ko'riladi. Bachadon bo'yni diqqat bilan ko'zdan kechiriladi (rangi, shakli, tashqi teshik xolati, ajralmalar xarakteri), qin devorlari xolati ko'riladi. Kuzgular qindan chiqariladi va dezinfeksiyalovchi eritmaga tashlanadi

11.QIN TOZALIK DARAJASINI ANIQLASH;

Maqsad: genital yallig'lanishni tashxislash.

Ko'rsatma: barcha ayollarda tekshirish usuli

Jihozlash: steril qo‘lqop va pelyonka, zarur asbob anjomlar, ginekologik kreslo, buyum oynasi;

Qin tozalik darajasini aniqlash uchun ajralma 3 ta nuqtadan olinadi: uretradan, servikal kanaldan va qinning orqa gumbazidan

I dar tozaligi - qin ajralmasi kislotali reaksiyaga ega (pH=4.0-4.5); mikroskop ostida faqat epiteliy va qin Doderleyn tayoqchasi ko‘rinadi.

II dar. Tozaligi – reaksiya kislotali (rN = 5,0 – 5,5); qin hujayralari va Doderleyn tayoqchalar kam

III dar. Tozaligi - reaksiya past ishqoriy (pH=6.0-6.5); qin tayoqchalari kam miqdorda; comma tariabill va anaerob streptokok dominantlik qiladi; koklar va leykotsitlar ko‘p miqdorda.

IVdar. tozaligi – reaksiya past ishqoriy, qin tayoqchasi yo‘q; aralash bakterial flora, anaerob kokklar, batsilla, trixomanada, leykotsitlar ko‘p miqdorda

12.BIV QO‘YISH TEXNIKASI;(COPPER T 380A)

Maksad: bachadon ichki vositasini kiritishni o‘rgatish

Ko‘rsatma: kontratsepsiya maqsadida, ginekologik ko‘rik

Kerakli jixozlar: steril qo‘lqoplar va pelyonka, bachadon ichki vositasi, bachadon fantomi, ginekologik ko‘zgu, bachadon zondi, qisqich, spirt

Bajariladigan bosqichlar:

Ikkala qo‘lga steril kulkop kiyiladi; BIVni steril paketta kiritishga tayyorlanadi: paketni BIVdan bush qism ini oching va oxirlarini turli tomonga torting; applikatorga oq sterjenni qo‘ying ; paketni tekis yuzaga qo‘ying; BIVni T-simon yelka ostiga identifikatsion kartochkani itaring; BIVni yelka oxirlarini ushlab turib applikatorni oldingga shunday suringki natijada bu yelkalar pastga egilib tursin; BIV yelkalari applikator devorlariga tekkanda, ularni oxirlarini ozgina torting; Applikator oxirlarini kutaring va u bilan spiral yelkalarini oxirlarini ushlab oling, extiyotkorlik bilan uni aylantiring;. Bachadon buynini ko‘rish uchun ginekologik ko‘zgu kirgizing. Bachadon buyni va Qinni antiseptik vosita bilan ikki marta ishlov bering. Qinni yon devorlariga va ko‘zguga tekizmasdan servikal kanal orkali bachadon bushligiga bitta xarakatda bachadon zondini kiriting. Bachadon bushligini uzunligini va xolatini zond yordamida aniklanadi. BIV tugirlangan paketni oling va BIVni steril paketdan chikarmasdan kerakli uzunlikka chukurlik chegaralovchini urnating, keyin paketni butunlay oching. Steril paketdan BIV tugirlangan applikatorni torting, nosteril yuzalarga tekkizmasdan servikal kanali orkali tugrillangan applikatorni extiyotlik bilan bachadon buyniga tegmaguncha yoki karshilik sezmaguncha kiriting. Ok sterjenni chikaring va applikatorni extiyotlik bilan oldinga suring, to yengil karshilik sezmaguningizcha. SeQinlik bilan applikatorni chikaring va BIV kiprikchalarini 2-3 sm uzunlikda koldirib kesing. Keyin applikatorni butunlay chikarib oling. Qiskichlarni extiyotlik bilan ajrating. Ishlatilgan asboblar zararsizlantiriladi.

Eslatma. BIVni qo‘yish uchun xayz kunining 2-3 kuni kelish tavsiya etiladi

13. ISHLATILGAN TIBBIY ASBOB-ANJOMLARNI BIRLAMCHI ZARARSIZLANTIRISH;

Kerakli jihozlar: kleyonkali fartuk ,himoya ko‘z oynagi, xo‘jalik qo‘lqop,0.5% gipoxlorid eritmasi

Bajarish algoritmi:

1. Qo‘llar yuviladi, quritiladi.
2. Hamshira maxsus kiyim: xalat ustida poliyetilen fartuk, ko‘z oynagi rezina qo‘lqop kiyadi.
3. Tibbiy asboblari qismlarga ajratiladi va 0,5% dez.eritmaga 10 daqiqa bo‘ktiriladi.
5. Oqar suvda chayiladi. Tibbiy asboblari lotokka solib biksga joylanib, markaziy sterilizatsiyaga bo‘limiga yuboriladi.
9. Qo‘lqoplar, fartuk yechiladi, zararsizlantiriladi.

14.HOMILADOR AYOLNING BACHADON TUBI BALANDLIGNI O‘LCHASH;

Ko‘rsatma: homiladorlik muddatini aniqlash.

Kerakli jihozlar: o‘lchov tasmasi, kushetka, ayolning shaxsiy kartasi.

Bajarilish tartibi:

1. Bachadon tubini o‘lchash, ayolga siydik pufagi bo‘shatilishi lozimligi tushuntiriladi.
2. Ayol kushetkaga oyoqlari to‘g‘rilangan holda yotqiziladi.
3. O‘lchov tasmasini qorinning o‘rta chizigi bo‘ylab, chovning yuqori qirrasidan bachadon ko‘proq bo‘rtgan joygacha qo‘yib ma‘lumot belgilanadi.
4. Homiladorlik muddati hafta (oy): Bachadon tubi balandligi.
 - 1) I oy (6 hafta) – Bachadon sharsimon shaklda bo‘ladi Snegerov, Genter, Gorvin-Gegar belgilarida.
 - 2) II oy (8 hafta) – Ayol mushtidek, tubi simfez tengligida Piskachek belgisi namoyon bo‘ladi.
 - 3) III oy (12 hafta) – g‘oz tuxumidek , bachadon tubi simfezdan bir barmog yuqorida 1-2 sm.
 - 4) IV oy (16 hafta) – chov va Qindik o‘rtasida 6-7 sm.
 - 5) V oy (20 hafta) – qorin sezilarli kattalashgan, bachadon tubi Qindikdan 2 barmog pastda. Homila qimirlashi seziladi yuzaki tonlar eshitiladi. 12-13 sm.
 - 6)VI oy (24 hafta) – Bachadon tubi Qindik ro‘parasida 20-24 sm.
 - 7) VII oy (28 hafta) – Bachadon tubi Qindikdan 2 barmog‘ yuqorida 24-28 sm.
 - 8) VIII oy (32 hafta) – Qindik sillig‘lashadi, bachadon tubi Qindik va xanjarsimon o‘sik o‘rtasida 28-30 sm.
 - 9) IX oy (36 hafta) – Bachadon tubi xanjarsimon o‘sik va qovurga yo‘lar ostiga yetadi.
 - 10) X oy (40 hafta) – Bachadon tubi homila boshi chanoq bo‘shlig‘iga tushishi hisobiga pastga 32 xaftalik homiladorlikda joylashgan yerga tushadi 28-32 sm.

15.HOMILADOR AYOLNI QORIN AYLANASINI ANIQLASH

Ko‘rsatma: homiladorlik muddatini aniqlash.

Kerakli jihozlar: o‘lchov tasmasi, kushetka, ayolning shaxsiy kartasi.

Bajarilish tartibi:

1. Tekshirilishdan oldin homilador ayolga siydik yo‘li bo‘sh bo‘lishi tushuntiriladi.

2. Ayol kushetkaga yotqiziladi va oyog‘lari to‘g‘rilanadi.
3. O‘lchov tasmasi qorin atrofidan, oldindan, Qindik orqasidan, bel soxasidan aylantirib o‘tqaziladi.
4. Olingan ma‘lumot belgilanadi.
5. Ayolga o‘rindan turishga yordam beriladi.
6. Qo‘llar ilig‘ suvda, sovun bilan yuviladi.
7. Olingan ma‘lumot homilador ayolning shaxsiy kartasiga yoziladi.

Eslatma: Akusherlik hisobidagi IX-oy oxirida bachadon tubi xanjarsimon o‘siq va qovurg‘alar ravog‘igacha ko‘tariladi. Bu homilaning bachadon tubidan eng ko‘p ko‘tarilgan nuqtasidir, qorin aylanasi o‘rta hisob bilan 90 sm, Qindik tekislangan bo‘ladi.

16. Homilador ayolni Leopold-Levitskiy usuli bo‘yicha tashqi akusherlik tekshiruvidan o‘tkazish;

Maksad: Tashqi akusherlik tekshiruvi xomiladorlik paytida xomila joylashishi, pozitsiyasini, kurinishini, kichik Chanoqni Qaysi satxiga tushganligini aniklashga va tug‘ruk jaryonini boshkarishda yordam beradi

Ko‘rsatma: Xomiladorlik davri, tug‘ruk davrida

Kerakli jixozlar: kushetka, fantom, mulyaj

Bajarish boskichlari

I amal: ikkala kul kafti bachadon tubiga kuyiladi. Bu usul bilan bachadon tubi balandligi va u yerda xomilaning Qaysi qism i joylashganligi aniklanadi. Agar bachadon tubida yumaloq, qattiq, xarakatchan qism aniqlansa u xomilaning boshi xisoblanadi, agarda keng xajmli yumshoq, kam xarakat qismi bo‘lsa, demak xomilaning dumbasi bachadon tubida yotganligi ma‘lum bo‘ladi.

II amal: bachadon tubidan ikkala kul kafti bachadon yoniga utkaziladi. Ikki kul barmoklari galma-gal bosib kurish yuli bilan bachadon paypaslanadi. Bunda xomilaning xolati, pozitsiyasi, turi aniklanadi. Agar xomila orqasi bachadon chap devoriga karasa I pozitsiya deyiladi, agar ung tomonga bulsa II pozitsiya. Xomilaning orqasi bachadon oldingi devori tomon og‘ib turgan bo‘lsa, oldingi tur, orqaga qarab turgan bo‘lsa orqa turi deyiladi.

III amal: Xomilaning oldinda yotgan qismini aniqlash uchun qo‘llaniladi. O‘ng kulning ochiq kafti bilan xomilaning oldinda yotgan qismi ushlanadi. Birinchi barmogi kolgan barmoklardan maksimal uzoklashtiriladi va «simptom ballotirovaniye» xomila boshi aniklanadi, shu bilan birga xomila boshi ulchamlari aniklanadi. Xomilaning chanoq tomoni oldinda yotgan bo‘lsa, simfiz ustida aniq shaklga ega bo‘lmagan va chetlari aniq bilinmaydigan kattagina yumshoqroq qism qo‘lga unnaydi.

IV amal: oldinda keluvchi qism ning turgan joy xamda u Chanoqning Qaysi yuzasida turganligi aniklanadi.

17. HOMILADORLIK VA TUG‘RUQ MUDDATINI ANIQLASH

1. Birinchi marta xomilani qimirlashiga qarab;
2. Ovulyatsiya bo‘yicha;
3. Oxirgi hayz kuniga qarab;
4. Obektiv ma‘lumotlariga ko‘ra (Libov formulasi $X=L+4$);

5. Ultratovush tekshiruvi ma'lumotlariga ko'ra;
6. Tug'ruk vaqtini aniqlash X-3oy+7kun.

Eslatma: homiladorlik va tug'ruq muddatini aniq bilish uchun ayollarni

homiladorlikning dastlabki muddatda hisobga olish, anamnez va homilador ayolni obektiv tekshirish ma'lumotlarining jami yig'indisini to'plash kerak.

18.Homilador ayol tana vaznini o'lchash

Tibbiy tarozi muvozanatga keltiriladi;

Ayol ustki kiyimlari yechintiriladi;

▪ Ayol tarozi maydonchasining o'rtasiga zatvorning ko'tarib qo'yilgan xolatida extiyotlik bilan chiqariladi;

▪ Ayolni qattiq silQinib ketishdan saqlash lozim;

▪ Muvozanat holati yuzaga keltirilgan zatvor pastga tushiriladi.

▪ Gavda massasi tarozi pastki va yuqorigi plankalarda yuklar to'xtagan bo'limlarining ikkita soni yig'indisi bo'yicha aniqlanadi.

▪ O'lchanganda olingan ma'lumot dinamik varaqasiga belgilanadi.

▪ Tarozi dezinfeksiya eritma bilan artiladi.

❖ Eslatma: homiladorlikda ayolning tana vazni ortib boradi. Tana vazniga bir haftada 300-400 gramdan qo'shiladi. Butun homiladorlik davrida tana vazniga normada 10-15 kg qo'shiladi.

19.Homilaning taxminiy vaznini aniqlash.

Maksad: homiladorlik paytida, tug'ruk jaryonida xomila vaznini aniklash uchun qo'llaniladi

1. Xomilador ayolni kushetkaga oyoklari uzatilgan holda yotqiziladi. Siydik pufagini bo'shatish so'raladi.

2. Bachadon balandligi aniklanadi. Santimetrli lentaning birinchi uchi simfizning yuqori qirrasiga,

ikQinchi uchi bachadon tubining baland soxasiga qo'yiladi.

3.Santimetrli lenta bilan qorin aylanasi o‘lchanadi: old tomondan Qindik ustiga, orqadan bel soxasiga moslashtiriladi.

4. Olingan kattaliklar ko‘paytiriladi.

Masalan:qorin aylanasi-90smbachadon tubi balandligi-35sm

BTB * QA =HTV 95sm * 35sm = 3325 gr.

Eslatma: egiz homiladorlik, ko‘p suvlilik, kam suvlilik, semizlik holatlarida bu formuladan foydalanish mumQin emas.

20.Homilaning yurak urishini eshitish.

1. Homilador ayol kushetkaga chalqancha yotqiziladi.

2.Homila holati, pozitsiyasi, turi va joylashuvi aniqlanadi.

3.Akusherlik stetoskopining keng qism i ayol qorniga qo‘yiladi,

- I pozitsiyada chapda,

- II pozitsiyada o‘ngda eshitiladi.

- Homila ko‘ndalang joylashganida Qindiksoxasida yaxshi eshitiladi. Xomila boshi bilan oldinda kelganda Qindikdan pastda, chanogi bilan kelganda Qindikdan yuqorida yurak urishiyaxshi eshitiladi. Homila yurak urishi 1 minut davomidaeshitiladi va maxsus varaqaga qayd etiladi(1 minutda 120-160 marta)

Ineksiyalarni bajarish (mushak orasiga, vena ichiga).

21.MUSHAK ORASIGA INEKSIYA QILISH.

Kerakli jihozlar: Ilig‘ suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo‘lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, steril paxta sharchalar, yuboriladigan dori, 0,5%li xlorli eritmasi, fantom.

Bajarilish tartibi:

1.Bemorga dori moddasi va qilinadigan ineksiya haqida ma’lumot beriladi.

2.Undan ineksiya qilish vaqtida to‘siq bilan o‘rash kerak-yo‘qligini so‘raladi (agar bemor xonada yolgiz bo‘lmasa).

3.Qo‘llar sovun bilan ilig‘ suvda yuviladi, quruq qilib artiladi va steril rezina qo‘lqop kiyiladi.

4.Dori moddasi shpritsga tortiladi.

5.Bemorga qilinadigan ineksiya uchun qulay vaziyatni egallashga yordam beriladi (“qorinda” yoki “yonbosh”).

6.Ineksiya qilinadigan joyni belgilang, qo‘lqopni keying.

7.Ineksiya qilinadigan joyni spirtga yoki yodga namlangan paxta sharcha bilan arting.

8.Ineksiya qilinadigan joy fiksatsiya qilinadi.

9. Ignani 2-3mm teri ustida ushlanib, 90⁰ ostida mushakka kiritiladi.
 10. Chap qo'lni porshenga o'tqazib dori moddasi yuboriladi.
 11. Ignani odatdagidek chigariladi.
 12. Paxtani teridan olmasdan turib ineksiya qilingan joy seQin uqalanadi qo'lqoplar yechiladi.
 13. Bemorga qulay vaziyatni egallashiga yordam beriladi.
 14. To'siq olib qo'yiladi.
- Eslatma:** Ilitilgan moyli eritmani kiritishdan oldin, porshen yuqoriga tortiladi, qon chiqmasagina eritma yuboriladi.

22. VENA ICHIGA INEKSIYA QILISH

Kerakli jihozlar: Iliq suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo'lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, yostig'cha, rezina jgut, steril paxta sharchalar, kleyonka, 0,5%li xlorli eritmasi.

Bajarilish tartibi:

1. Bemorga dori moddasini yuborish haqida ma'lumot beriladi.
2. Shpritsga dori moddasi tortiladi.
3. Bemorga qulay vaziyatni egallashda yordam beriladi.
4. Bemorning tirsagi ostiga kleyonka yostig'cha qo'yiladi, qo'lqoplar kiyiladi.
5. Yelkaning o'rta qismi rezina jgut bilan bo'g'lanadi, bunda bilak arteriyasidagi puls o'zgarishligi lozim. Jgutni shunday bog'lash kerakki, uning ikki uchi yuqoriga, halqasi esa pastga yo'nalgan bo'ladi.
6. Bemordan kaftini bir necha marotaba sigib ochish so'raladi, bir vaqtning o'zida tirsak bug'imini spirtga namlangan steril paxta bilan artiladi. Periferiyadan markazga harakat qilib, tomirlar to'lig'lig'i aniqlaniladi.
7. Shprits olinadi, ko'rsatg'ich barmog' bilan igna kanyulasini, boshga barmog'lar bilan esa silindr yuqorisidan ushlaniladi.
8. Ignaning o'tkazuvchanligini va shpritsda havo yo'g'lig'i tekshiriladi.
9. Chap qo'l bilan tirsak bukimidagi teri tortiladi.
10. Shprits qolatini o'zgartirmasdan, igna kesimini yuqoriga va teriga parallel ushlab venaga kiritiladi.
11. Chap qo'l bilan venani aniqlagan holda ignaning yo'nalishini nisbatan o'zgartirib bo'shliqga tushganlikni his qilguncha, asta-seQinlik bilan vena teshiladi.
12. Igna venada ekanligiga ishonch hosil qilinadi, porshen o'zimizga tortiladi (shpritsda qon hosil bo'lishi lozim).
13. Jgutni chap qo'l bilan bir uchidan tortib yechiladi, bemordan mushtini ochish so'raladi.
14. Shprits holatini o'zgartirmasdan chap qo'l bilan porshen bosiladi va dori asta-seQinlik bilan yuboriladi.
15. Ineksiya qilingan joy spirtga namlangan paxta sharchada bosilib igna chiqariladi.
16. Qon bilan ifloslangan paxta sharchalar olib tashlaniladi, qon tekkan joylar 0,5%li xlorli eritma bilan artiladi.
17. Qo'lqoplar yechiladi va ular 0,5%li xlorli eritmaga solinadi.
18. Qo'llar yuviladi va sochiq yoki salfetka bilan artiladi.

Eslatma: Venaga ineksiya qilish uchun ko'proq to'lishgan venani topish kerak. Agar shprintsda mayda havo pufakchalari bo'lsa, uni silkitib, mayda pufakchalar katta pufakchaga aylantiriladi va uni ignadan chiqarib yuborish oson bo'ladi.

23. Tug'ruq jarayonini olib borish:

a) Ensa oldinda yotganda tug'ruq biomexanizmi

Maksad: Ensa oldinda yotganda tug'ruq biomexanizmi fantomda o'zlashtirish

Kerakli asbob anjomlar: fantom qo'g'irchoq

Bajarish bosqichlari:

-tug'ruq biomexanizmi 4 ta momentdan iborat

1 moment: xomila boshining bukilishi, kichik liqildoq o'tkazuvchi nuqta xisoblanadi, xomila boshi chanoqqa kichik qiyshiq o'lcham bilan kiradi.(9,5-32 sm)

2 moment: xomila boshining ichki burilishi

3 moment: xomila boshining yozilishi

4 moment: xomila boshining tashqi burilishi va yelkalarining ichki burilishi

b) Ensa oldinda yotishining orqa turida tug'ruq biomexanizmi

Maksad: Ensa oldinda yotishining orqa turida tug'ruq biomexanizmini fantomda o'zlashtirish.

Kerakli asbob anjomlar: fantom qo'g'irchoq

Bajarish bosqichlari:

1 moment: xomila boshining bukilishi

2 moment: xomila boshining ichki burilishi

3 moment: xomila boshining qo'shimcha bukilishi

4 moment: xomila boshining yozilishi, bosh o'rta qiyshiq o'lcham bilan tug'iladi.(10-33 sm)

5 moment: boshning tashqi yelkalarining ichki burilishi.

24. Tug'ruqni 3 davrini faol olib borish;

Homila tug'ilib, pulsatsiya to'xtagandan so'ng ikkinchi homila bor-yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun qorin devori paypaslab ko'riladi.

10YED oksitotsin muskul orasiga yuboriladi.

Platsentaning ajralganlik belgisi paydo bo'lib, ayolda to'lg'oq tutishi boshlanganda 1-qo'l bilan qorin devori ustidan kontraksiya hosil qilinadi.

2-qo'l bilan Qindik tizimchasidan ushlab, yuqoriga va pastga asta-sekin tortiladi.

30-40 sekund ichida platsenta tug'ilmasa Qindik tizimchasidan tortish to'xtatiladi keyingi to'lg'oqni kutiladi.

Platsenta Qindik tizimchasini tortish va bachadonni bosish yordamida ajraladi

Bachadon massaj kilinadi

Platsenta tug'ilgandan so'ng diqqat bilan ko'zdan kechiriladi:(uning qobiqlari, bo'laklari, Qindik tizimchasi)

– Qindikka birlamchi ishlov berish;

Qindikni tug'ruqdan keyin qisish vaqti:

Qindikni erta qisish – 10-15 sekund o'tgach

Qindikni kech qisish – 3-5 minut o'tgach

Bugungi kunda Qindikni **optimal qisish** vaqti normal tug‘ilgan chaqaloq uchun hayotini birinchi minuti o‘tgach, chala tug‘ilgan chaqaloq uchun esa – 30-45 sekunddan iborat. Qindikni bog‘lashni qulay usuli – rezina jgutidir. Plastikli qisqichdan foydalansa ham bo‘ladi.

21. Yangi tug‘ilgan chaqaloq ko‘zlariga ishlov berish;

Tug‘ruq yo‘llaridan infeksiyalanishini oldini olish maqsadida tug‘ilgan chaqaloqda o‘z vaqtida blenoreyaga qarshi profilaktika o‘tkaziladi.

Profilaktika uchun ishlatiladigan dori vositalari:

- 1% tetratsiklin malxami
- 0,5% eritromitsin malxami

Tavsiya etiladi:

Profilaktika tug‘ilgach birinchi soat ichida o‘tkaziladi

22. “Teri - teriga” kontaktini amalga oshirish;

Maqsad: Chaqaloq tug‘ilganidan so‘ng, tanasining ona tanasi bilan bevosita aloqasi.

Ko‘rsatma: Yangi tug‘ilgan chaqaloq va ona o‘rtasida ruhiy va emotsional aloqani o‘rnatish. Ko‘krak bilan ovqatlantirish va onada laktatsiyaning yaxshilanishi. Chaqaloqning onaning bakterial florasi bilan kolonizatsiya qilish. Chaqaloq tana haroratini normal ushlab turish. Chaqaloqda sezgining rivojlanishi.

Jihozlash: Issiq yo‘rgaklar. Issiq qalpoqcha. Issiq ko‘rpa.

Tug‘ilganidan so‘ng va uning holatini hisobga olgan xolda chaqaloqni parvarish qilishning barcha bosqichlarida tavsiya qilinadi. Tug‘ilganidan so‘ng darhol chaqaloqni ona ko‘kragi-qorniga yotqizing; uni quriting va xo‘l yo‘rgakni qurug‘iga almastiring. Issiq qalpoqcha kiydiring va chaqaloq ustiga ko‘rpa yopib qo‘yig. “Teri-teriga” aloqasini ona va chaqaloqning tug‘ruq zalida bo‘lishi vaqtida davom ettiring. “Teri-teriga” aloqasini chaqaloqni tug‘ruq zalidan palataga transportirovka qilish paytida ham davom ettirish mumkin. Muolaja paytida tibbiy personal chaqaloq terisi qoplamlarining rangi, nafas olishi va tana haroratini kuzatib borishi va chaqaloqning rivojlanish tarixiga yozib qo‘yish lozim.

23. Ko‘krakka birlamchi tutish.

Maqsad: chaqaloqning tashqi muhitga, ichak va terisining normal bakterial floraga ertaroq ega bo‘lishi, laktatsiyaning tiklanishi, ona va bola o‘rtasida ruhiy aloqa o‘rnatilishi, yiringli-septik kasalliklar sonini kamaytirish, me‘da-ichak faoliyatining tiklanishi, gipoglikemiyaning oldini olish, bachadonning qisqarishi imkon beradi.

Ko‘rsatma: barcha chakaloklarga tugilgandan sung birinchi soat ichida utkaziladi Bolani ona ko‘kragiga qulay tutish va bola emishga tayyorligiga ishonch hosil qilish (qidirish va emish reflekslari mavjudligi)

onaga ko‘krak so‘rg‘ichlarini qanday qilib bolaga tutish va bir necha tomchi o‘g‘iz sutini siqib chiqarishni tushuntirish, bola ogzini ochib, so‘rg‘ichlarni to‘liq og‘ziga olishini kutish (surgichni areolasini tulik ogziga olishi lozim)

onaning his-tuyg‘ularini so‘rash va uning reaksiyasiga e’tibor berish

Muolaja davomiyligi chegarlanmagan, emizish vaqtida bolaning teri qoplami rangi va nafas olishiga e’tibor berish lozim

Moneliklar: onada ochiq sil, onasi sitostatik dorilar qabul qilganda, onada OVI/VICH musbat bo'lganda.

24.Tizimni eritma yuborishga tayyorlash;

Kerakli jihozlar: disfunktsional krovat, iliq suv, sovun, steril sochiq yoki salfetka, steril rezina qo'lqop, shtativ, sistema.

Bajarilish tartibi:

Xamshira qo'llarini ilig' suvda sovun bilan yuviladi.

Steril sochiq yoki salfetka bilan artiladi.

Steril rezinali qo'lqoplar kiyiladi.

Bemor disfunktsional krovatga yotgiziladi.

Shtativga dorili sistema qo'yiladi.

Tomir ichiga dori quyish quyidagicha tayyorlanadi.

Dori vositasi aralashtiriladi.

Eritma tomir ichiga sistemaning ignasi orqali kirgiziladi.

Eritmaning tezligi vrach ko'rsatmasiga qarab qo'yiladi.

Bemor ahvoli doimo nazorat qilinadi.

Eslatma: Bemor ahvoli doimo nazorat qilinadi.

25.Tug'ruqdan so'ng bachadon tubini aniqlash;

Ilk chilla davrida ayol holati baholanadi:A/D,pulsi,tana harorati,siydik ajralishi,bachadon tonusi;

Bachadon tonusi tug'ruqdan keyingi 2 soat ichida-har 15 minutda;

Keyingi 1soat ichida har 30 minutda;

keyingi 3 soat ichida har 1soatda;

24 soat davomida har 4 soatda tekshiriladi va monitoring varag'iga yozib boriladi.

26. Qorin aortasini musht bilan bosish;

Qo'lni musht qilib qorin devori ustidan bosim bilan qorin aortasi bosiladi.

Bosish nuqtasi Qindik ro'parasida yoki biroz chaproqda joylashadi.

Bosimni baholash uchun ikQinchi qo'l bilan chov arteriyasi palpatsiya qilinadi

Agar puls aniqlansa,musht bilan bosim o'tkazish noto'g'ri bajarilayotganligini bildiradi, aksincha puls aniqlanmasa to'g'ri bajarilayotganligini bildiradi.

Qorin aortasini bosish qon ketish to'xtagunga qadar bajariladi.

27.Bachadonni bimanual kompressiyasi;

Qo'llarni obrabotka qilib steril perchatka kiyiladi.

1-qo'lni qinga kiritib, musht qilib tugiladi.bachadonning oldingi devori ustidan bosiladi.

2-qo'l bilan qorin devori ustidan bachadonning orqa devoriga1-qo'l yo'nalishiga qarab bosiladi

Bachadon kompressiyasi bachadon qisqarguncha va qon to'taguncha davom ettiriladi.

28.Yangi tug'ilgan chaqaloq antropometriyasini o'tkazish: ko'krak qafasi, bosh aylanasi, bo'yini o'lchash;

Kerakli jihozlar: tarozi, o'lchov tasmasi, bo'y o'lchag'ich.

Bajarilish tartibi:

Yangi tug'ilgan chaqaloqning o'lchamlari:

1. To'g'ri o'lcham (diametr fronto-oidipitalis) - burun hansharidan ensa do'mbog'igacha:
To'g'i o'lcham-12 sm. Aylana o'lcham-34 sm.
2. Katta qiyshiq o'lcham (diametr mento-oidipitalis) - ensa do'mbog'idan engakkacha:
To'g'ri o'lcham-13 sm. Aylana o'lcham-35-36sm.
3. Kichik qiyshiq o'lcham (diametr suboipito-bregmatika) - ensa ostidagi chuqurchadan katta hiqqildoqning oldingi burchagigacha:
To'g'ri o'lcham-9,5sm. Aylana o'lcham-32sm.
4. O'rtadagi qiyshiq o'lcham (diametr suboipito-frontalis) - ensa ostidagi chuqurchasidan peshananing sochli qismi chegarasigacha:
To'g'ri o'lcham-10sm. Aylana o'lcham-33sm.
5. Tik yoki vertikal o'lcham (diametr vertikalis, strachelo-bregmatika)-tepa suyak uchidan til osti sohasigacha:
To'g'ri o'lcham-9,5-10sm. Aylana o'lcham-33sm.
6. Katta ko'ndalang o'lcham (diametr bipariyetalis)-tepa do'mboqlar o'rtasidagi eng katta masofa-9 sm teng.
7. Kichik ko'ndalang o'lcham (diametr bitemporalis)-toj chokning eng olis nuqtalari o'rtasidagi masofa-8 sm teng.

29. Yangi tug'ilgan chaqaloq vaznini tortish;

Kerakli jixozlar: steril qo'lqop, elektron tarozi, pelyonka, F-097 chaqaloqlarning tug'ilish tarixi, partogramma.

Bajarish bosqichlari:

Tug'ruqdan so'ng 2 soat ichida chaqaloqning vazni tarrozi yordamida tortib ko'riladi. Akusherka qo'llarini zararsizlantirib, steril qo'lqop kiyadi, tug'ruqdan oldin tayyorlagan taroziga chaqaloqni yotqiziladi

Aniqlangan ko'rsatkichlar xujjatga belgilanadi.

30. Yangi tug'ilgan chaqaloqning ko'zlariga ishlov berish;

Maqsad: blennoreyaning oldini olish

Ko'rsatma: barcha chakaloklarga tugilgandan sung birinchi soat ichida utkaziladi.

Jihozlar: 1% tetratsiklin yoki eritromitsin malhami (maz) (har bir bola uchun individual tyubik); Steril yoki toza bir martalik qo'lqoplar;

Qo'llarni yuvib, qo'lqoplarni kiyiladi

Pastki qovog'ini pastga tortib, ikkala ko'zining konyunktival qopchasiga bir martadan maz suriladi

Ko'z shilliq pardasiga tyubik tegmasligi lozim!

Bajarilgan muolaja kasallik tarixiga yozib qo'yiladi.

Asoratlar: Ko'zning infitseksiyalanishi (aseptika qoidalariga rioya qilmaganda), ko'zning mexanik zararlanishi.

31. Qindik qoldig'ini dastlabki ishlovdan o'tkazish va parvarish qilish;

Maqsad: Qindikdan qon ketishi va infeksiya tushishining oldini olish.

Jihozlar: Steril qo'lqoplar, steril tagliklar, steril rezinali xalqa yoki Rogovin qisqichi, yoki bmr martalik plastik qisqich, steril qisqich.

Ko'rsatma: Chakaloklarga majburiy ishlov berish usuli

Qindik qoldig'iga birlamchi ishlov berish tuqruqdan keyingi birinchi 2 soat ichida bajariladi

Ko‘llar yuvilib. Steril qo‘lqoplar kiyiladi

Qindik qoldig‘iga rezina xalqa kiritilgan qisqich qo‘yiladi

Ikkinchi qisqich bilan xalqani Qindik qoldig‘iga Qindik xalqasidan 3-4 sm masofada qo‘yiladi

Agar bular bo‘lmasa (uydagi, mashinadagi tug‘ruq) bint yoki bir necha qavat qilingan ipni etil spirti yoki aroqda namlab ishlatiladi

Rezina xalqadan 1 sm masofada qo‘yiladi

Qindik qoldig‘i quruq va ochiq qoldirishi lozim

32. Chaqaloqni tana haroratini saqlash(«kenguru» usuli, «terini–teriga» kontakti)

Afzalliklari:

Bolani tana haroratini, yurak urishi, nafasi va qon saturatsiyasini muqimligini ta‘minlaydi. Apnoeni kamaytiradi, hatto yo‘qotadi. Miyani qon aylanishini yaxshilaydi. Bolani bo‘shashgan ko‘krak muskullarini ushlab turadi. Oshqozondagi sutni ichakka o‘tishiga yordam beradi. O‘pka ventilyatsiyasini yaxshilaydi. O‘qchish va aspiratsiyani kamaytiradi. Tashqi ta‘sirlardan asraydi. Bezovtaligi kamayadi, bola tinchlanadi. Laktatsiyani yaxshilaydi, emizishni davomiyligi uzayadi. Ona bolani reaksiyasini tushuna oladigan bo‘ladi. Bola yaxshi uxlaydi, yig‘isi kamayadi, vazni yaxshi qo‘shiladi. Shifoxona ichi infeksiyasi bilan zararlanish xavfi kamayadi.

Bajarish bosqichlari

Ona bolani bu usulda olib yotishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolani ahvoli o‘zgarmas, nafas olishi bir meyorda bo‘lishi kerak. Ona o‘ziga qulay, yarim o‘tirgan xolatda yotadi. Bolani old tomoni yalong‘ochlanib, onani ko‘kraklari oralig‘iga “fleksi” (qurbaqa) xolatida yotkaziladi. Bolani qo‘liga qo‘lqopcha, oyoqlariga paypoqcha kiygaziladi. Ona va bolani ustidan issiq choyshab (ko‘rpa) yopiladi. Honani harorati 24°S va undan yuqori bo‘lishi kerak.

33. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ona ko‘kragiga tutish;

Bajarilish tartibi:

Ko‘krak suti bilan emizishning eng yaxshi usuli bola talabiga ko‘ra erQin emizishdir. Buning uchun ona va bolaga mos keladigan emizish bo‘yicha qo‘llanma berish kerak.

Emizishdan avval taglik ifloslangan bo‘lsa, uni almashtirish kerak.

Bola ko‘krak so‘rg‘ichini to‘g‘ri olishi uchun, bolani to‘g‘ri yotqizish kerak, bolaning yuzi ona yuziga qarab turushi kerak. Yana qulay vaziyat yaratish uchun maxsus yostiqcha yoki sochig‘dan foydalansa bo‘ladi.

Emizishdan avval ona sut bezining so‘rg‘ichini bolaning labiga tegizadi, shunda bola og‘zini katta ochadi va so‘rg‘ich areola bilan birga bola og‘ziga kiritib, bolani emizadi.

Tuqqan ayol bolani mustaqil ravishda emizishi uchun unga yordam berish maqsadida ko‘rsatmalar beriladi.

Chap va o‘ng sut bezini 10 daqiqadan galma-gal berish, sut dimlanib qolishini oldini olishini tushuntirish kerak.

Bola to'liq to'yguncha emiziladi. Ammo tug'ruqdan keyingi 1 kunlarda sut bezida qizarish, pufakchalar va yorig'lar kuzatilishi mumkin, shuning uchun bu davrda emizish davomiyligini kamaytirish kerak.

Tuqqan ayolga bolaga ko'krakni berish usullari o'rgatiladi. Bunda ko'krak shakli, so'rg'ich turi e'tiborga olinadi.

– Muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni zond orqali ovqatlantirish;

Zondli ovqatlantirish burun yoki og'iz orqali me'daga kiritilgan zond orqali ovqatlantirishdir. Agar bolani nafas olishi yaxshi bo'lsa, zond burun orqali kiritiladi, nafas olishi qiyinlashgan bo'lsa og'iz orqali kiritiladi. Bolani vazniga ko'ra zondni quyidagi o'lchamlari tanlanadi.

Agar bola 2 kg dan kam vaznda bo'lsa zondni o'lchami – 5-G'

Vazni 2 kg va undan ortiq bo'lsa zondni o'lchami – 8-G' bo'lishi kerak

Zondni yuborish uchun uni oshqozongacha yuborish uzunligi quyidagicha o'lchanadi: burundan quloqqacha, so'ng oshqozongacha (hanjarsimon o'simgacha) zondni shu joyi belgilab olinadi.

34. Yangi tug'ilgan chakalokni reanimatsiya qilish.

Bajarilish tartibi:

1. Chaqaloq reanimatsiyaga muhtoj emas

Muddatiga yetganmi?

Nafas olyaptimi?

Muskul tonusi yaxshimi? Agar xamma savollarga «XA» deb javob bersa.

Chakalokni kuritish

«Teri-teri» kontaktini bajarish

Ona va bolani birga bulishini ta'minlash

2. Reanimatsiyaga qachon muhtoj bo'ladi?

Chakaloq nafas olmasa.

Muddatiga yetmagan bo'lsa

Muskullar tonusi sust bo'lsa.

REANIMATSIYANI BOSHLASH: (AVSD)

Qindik tizimini kesish.

Isitilgan reanimatsiya stoliga yotkazish.

To'g'ri yotkazish.

Yuqori nafas yo'llarini o'tkazuvchanligini ta'minlash.

Nafas yo'llarini aspirator yordamida tozalash.

Quritish, isitilgan pelyonka bilan taktil stimulyatsiya qilish.

30 sek.dan keyin qayta baholash

Agar nafas qisishi va sianoz kuzatilsa, Ambu qopi va niqobida., 30 sek davomida sun'iy nafas beriladi (IVL) va xolati yana qayta baxolanadi.

(jami 1min. bo'ladi) Yurak urishini sanash uchun 6 sek.davomida ventilyatsiya qilmay turiladi va bu 6 sek.davomida yurak urishini sanab 10ga ko'paytiriladi.

Agar apnoe yoki gasping kuzatilsa, yurak urishi minutiga 60 dan kam bo'lsa yurakni tashqi massaji boshlanadi.1:3 nisbatda 30ta ventilyatsiya,90ta yurak massaji qilinadi.30 sekdan keyin yana yurak urishi 60 dan kam bo'lsa vena ichiga adrenalin qilinadi 0,01-0,03mg/kg (1: 10000)

33.Bazal haroratni o'lchash.

Maqsad: gormonal faoliyatni aniqlash

Ko'rsatma: bepushtlik, hayz faoliyatining buzilishi, kontratsepsiya

Jihozlash: 2 ta simob termometri, vazelin, yozuv daftarchasi, ruchka.

Test o'tkazish haqida ayollar bilan suhbatlashish.

Ayol daftarga grafalar bo'yicha qo'yidagilarni yozadi: kalendar kuni, hayz sikli kuni, to'g'ri ichak harorati, tana harorati va eslatma.

Ayolga tushuntirish kerak: ertalab to'shakdan turmasdan xar kuni bir vaqtda chapga yonboshlab bitta termometrni vazelin surtib to'g'ri ichakka 2-3 sm ichkariga kiritadi, ikkinchisini - qo'litiq ostiga 15 daqiqaga qo'yiladi.

Haroratni 7-10 minut davomida o'lchanadi, termometrda ko'rsatkichni tegishli grafaga yoziladi.Tahlil: Normada bazal harorat ikki fazali, 14 kunigacha birinchi fazada 37 °S gacha, 14 chidan 26 kungacha – ikkinchi fazada 37 °S dan yuqori. Orasidagi farq 0,5 °S gacha bo'lishi kerak.

Monofazali harorat (37 °S past) - bu butun sikl davomida ovulyatsiya yo'qligidan dalolat beradi.

34.Qin orqali ikki qo'llab(bimanual) tekshirish;

Maksad: Bu tashki ginekologik tekshiruvni bachadon bo'yni tuzilishi, bachadon xarakatchanligi, og'riqligi, tuxumdonlar holatini tekshirishga yordam beradi

Ko'rsatma: ginekologik tekshiruvlarda

Kerakli jixozlar: fantom, ginekologik kreslo, steril qo'lqop

Bajarilish bosqichlari:

Ayol ginekologik kresloga chalkanchasiga yotadi. Tekshiruvchi ikkala kuliga steril kulkoplar kiyadi. Tashki jinsiy a'zolar antiseptik eritma bilan artiladi. Chap kulning katta va kursatkich barmoklari yordamida jinsiy yorik ochiladi va ung kulning kursatkich va urta barmoklari birlashtirilgan xolatda Qinga kiritiladi. Kursatkich va bosh barmok bilan bartolin bezlari paypaslab kuriladi, sungra Qin yukori devori orkali uretra paypaslanadi. Bachadon buynining Qin qism i paypaslanadi, uning konsistensiyasi, shakli, tashki teshik xolati, xarakatchanligi va Chanoq ukiga munosabati aniklanadi. Bachadon paypaslanadi, bunda ikkala barmok orka gumbazga kiritiladi, chap kul oldingi korin devori orkali bachadon tanasi topiladi, uning kattaligi, konsistensiyasi, xarakatchanligi, xolati, og'rikliligi aniklanadi. Bachadon ortiklarini

paypaslashda barmoklar yonbosh gumbazlar soxasiga utkaziladi, bunda bachadon ortiklarining xolati, ogrikliligi va xarakatchanligi aniklanadi. Bachadon boylamlari paypaslanadi. Qin gumbazlarining xolati aniklanadi. Kulkoplar yechilib dezinfeksiyalovchi eritmaga tashlanadi.

35.QINNI KO‘ZGULAR YORDAMIDA TEKSHIRISH;

Maksad: tashki ginekologik tekshiruvi bachadon bo‘yni va qin devori tuzilishi, rangini, ajralmalar va xolatini tekshirishga yordam beradi

Ko‘rsatma: Ginekologik tekshiruvlarda

Kerakli jixozlar: fantom, kushetka, qin ko‘zgulari, steril qo‘lqop

Bajarilish bosqichlari: Ayolni qovug‘ini bo‘shatib kelishini tavsiya qilamiz, so‘ngra bemordan ginekologik kresloga yotishni so‘raladi. Ikkala qo‘lga sterillangan rezina qo‘lkop kiyiladi. O‘ng qo‘lga qin ko‘zgusi olinadi, chap qo‘lning ko‘rsatkich va bosh barmoqlari yordamida jinsiy lablar ochiladi. Kuzgu vertikal xolatda qinga kiritiladi va seQin asta ichkariga xarakatlantirib gorizontol xolatga o‘tkaziladi qinning yuqori devori ko‘tariladi, qin devorlari va bachadon bo‘ynini ko‘riladi. Bachadon bo‘yni diqqat bilan ko‘zdan kechiriladi (rangi, shakli, tashqi teshik xolati, ajralmalar xarakteri), qin devorlari xolati ko‘riladi. Kuzgular qindan chiqariladi va dezinfeksiyalovchi eritmaga tashlanadi

36.QIN TOZALIK DARAJASINI ANIQLASH;

Maqsad: genital yallig‘lanishni tashxislash.

Ko‘rsatma: barcha ayollarda tekshirish usuli

Jihozlash: steril qo‘lqop va pelyonka, zarur asbob anjomlar, ginekologik kreslo, buyum oynasi;

Qin tozalik darajasini aniqlash uchun ajralma 3 ta nuqtadan olinadi: uretradan, servikal kanaldan va qinning orqa gumbazidan

I dar tozaligi - qin ajralmasi kislotali reaksiyaga ega ($\text{pH}=4.0-4.5$); mikroskop ostida faqat epiteliy va qin Doderleyn tayoqchasi ko‘rinadi.

II dar. Tozaligi – reaksiya kislotali ($\text{rN} = 5,0 - 5,5$); qin hujayralari va Doderleyn tayoqchalar kam

III dar. Tozaligi - reaksiya past ishqoriy ($\text{pH}=6.0-6.5$); qin tayoqchalari kam miqdorda; comma tariabil va anaerob streptokok dominantlik qiladi; koklar va leykotsitlar ko‘p miqdorda.

IVdar. tozaligi – reaksiya past ishqoriy, qin tayoqchasi yo‘q; aralash bakterial flora, anaerob koklar, batsilla, trixomanada, leykotsitlar ko‘p miqdorda

37.BAKTERIOLOGIK TEKSHIRISH UCHUN QINDAN SURTMA OLISH;

Maksad: tashki ginekologik tekshiruvi- bachadon bo‘ynidan ochib surtma olinadi, ajralmalar tekshirishga yerdam beradi

Ko‘rsatma: Xar doim ginekologik tekshiruvlarda

Kerakli jixozlar: fantom, ginekologik kreslo, steril qo‘lqop, steril klyonka, salfetka va kerakli asbob-anjomlar

Bajarilish bosqichlari:

Ayol ginekologik kresloga yotkiziladi. Uretrani orqa devori o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i bilan yuqoridan pastga qarab yengil massaj qilinadi, so'ngrasteril tayoqchabilan surtma olinadi. Olingan material buyum oynachasining sektor «U» ga surtiladi. Qinga ko'zgu kirgaziladi va steril tayoqcha bilan bachadon bo'yni kanaldan surtma olib, olingan material buyum oynagasiga sektor «V» ga surtiladi. Steril tayoqchani ikkinchi uchi bilan qinning orqa gumbazidan servikal kanaldan surtma olinadi va olingan surtma buyum oynachasining sektor «S»ga surtiladi. Ko'zgular qindan chiqariladi, asboblarni zararsizlantiriladi. Laboratoriyaga tekshirish uchun yo'llanma yoziladi. Surtmalar qurigach yo'llanma bilan laboratoriyaga yuboriladi.

U	V	C

U –uretra: V- qin: C-bachadon bo'yni kanali:

Eslatma: Qinni chayish, muolaja o'tkazish mumkin emas. Kabul kilingan antibakterial preparatlar inobatga olinadi.

38.Spermagramma uchun sperma yig'ishni o'rgatish

Ko'rsatma:erkaklardagi bepushtlik.

Tekshirishdan avval erkak kishi 3-5kun davomida jinsiy loqa qilmasligi ogohlantiriladi. Shuningdek, spirtli ichimliklar qabul qilish mumkin emas.

Spermani tekshirish uchun er va xotin birgalikda taklif etiladi, sperma suyuqligi toza va quruq idishga olinadi.

Laboratoriyaga yo'llanma bilan yuboriladi.

39.ISHLATILGAN TIBBIY ASBOB-ANJOMLARNI BIRLAMCHI ZARARSIZLANTIRISH;

Kerakli jihozlar: kleyonkali fartuk, himoya ko'z oynagi, steril qo'lqop, peregidrol

Bajarish algoritmi:

1. Qo'llar yuviladi, quritiladi.
2. Hamshira maxsus kiyim: xalat ustida poliyetilen fartuk, ko'z oynagi rezina qo'lqop kiyadi.
3. Tibbiy asboblarni qismlarga ajratiladi va 0,5% dez. eritmaga 10 daqiqa bo'ktiriladi.
5. Oqar suvda chayiladi. Tibbiy asboblarni lotokka solib bixsga joylanib, markaziy sterelizatsiyaga bo'limiga yuboriladi.
9. Qo'lqoplar, fartuk yechiladi, zararsizlantiriladi.

40.Sitologik tekshirishga surma olish;

Maksad: bachadon bo'yni rak kasalligini barvaqt diagnostika qilish uchun

Ko'rsatma: bachadon bo'yni erroziyasi, yallig'lanish kasalliklari va bachadon bo'yni shaklining o'zgarishi.

Kerakli asbob-anjomlar: steril qo'lqop, pelyonka va paxta sharcha, qin ko'zgulari, kornsang, bo'lakchalarga bo'lingan buyum oynachalari.

Bajarish bosqichlari:

Bemor ginekologik kresloga yotqaziladi

Qoshiqsimon qin ko'zgulari yordamida bachadon bo'yni ochiladi

Kornsang bilan bachadon bo'ynidan surtma olinadi.

Surtmalar fiksatsiyalanadi. Yo‘llanma bilan laboratoriyaga jo‘natiladi.

41.SIYDIK PUFAGINI KATETERLASH.

Kerakli jihozlar: ayollar kateteri, lotok, pinset, sudno, kornsang, 1% yod eritmasi yoki 96 % spirt, cho‘tkada, steril qo‘lqoplar.vazelin moyi 50 ml, dez eritma 300 ml, suyuq sovun 300 ml,

Bajarilish tartibi:

Tug‘uvchi ayolning tashqi jinsiy a‘zolari kuchsiz dez. eritma bilan yuviladi.

Doya qo‘llari cho‘tkada sovunlab iliq suvda yuviladi,steril rezina qo‘lqoplar kiyiladi.96 % li spirt bilan artiladi.

Chap qo‘lning ishora va bosh barmog‘lari bilan jinsiy lablar keriladi.

Siydik chiqarish kanali tashqi teshigi ochiladi.

Elastik kateter o‘ng qo‘lga olinadi.

Kateterning bir uchi uretra orqali qovuqqa avaylab kiritiladi.

Siydik ajralib bo‘lgandan so‘ng, qolgan qoldiq siydikni chiqarish uchun qovuq soxasi bir oz bosiladi.

Kateter asta-seQin chiqarib olinadi.

Ishlatib bo‘lingan kateterlar oqar suvda yuviladi.

0,5 % li xloraminga 10 daqiqaga solinadi.

Kateter dezinfeksiyalovchi eritmadan olinib oqar suvda yuviladi,qaynatiladi

Rezina qo‘lqoplar yechiladi va 0,5%li xlor eritmaga solinadi.

Qo‘llar yuviladi.

Eslatma: Kateterning tashqi uchida siydik ko‘rinishi qovuqqa tushganlikdan dalolat beradi.

42.TOZALOVCHI HUQNA O‘TKAZISH TEXNIKASI.

Kerakli jihozlar: Esmarx krujkasi, 1,5 metrli buragichli yoki qisqichli birlashtiruvchi trubkadan iborat sistema, shtativ, steril rektal uchlik, 1,5 - 2 litr hajmdagi 20⁰S li suv, suv termometri, shpatel, sudno.

Kerakli xom – ashyo : tibbiy vazelin, kleyonka va taglik, kleyonkali fartuk, maxsus kiyim, bir marta qo‘llaniladigan qo‘lqoplar.

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan samimiy aloqa o‘rnatib, muolaja mohiyati va maqsadi tushuntiriladi.

Moneliklar yo‘qligi aniklanadi. Bemorni muolajaga ruhan tayyorlanadi.

2. Muolaja maxsus xonada o‘tkaziladi. Buning iloji bo‘lmaganda bemor oldini shirma bilan to‘sib, bemor uchun qulay sharoit yaratiladi.

3. Maxsus kiyim, qo‘lqoplar kiyiladi, kleyonka fartuk taqiladi.

4. Esmarx krujkasi, buragichli yoki qisqichli birlashtiruvchi trubkadan iborat sistemani yig‘ib, uchlik o‘rnatiladi va 1,5-2 litr suv solinadi.

5. Suv haroratini suv termometri bilan tekshiriladi.

6. Esmarx krujkasini poldan 1 metr balandlikda ko‘tarib, shtativga o‘rnatiladi (bemordan 30 sm dan baland bo‘lmasligi kerak).

7. Uchlikka quyuqqilib shpatel yordamida vazelin surtiladi.

8. Sistema to‘ldiriladi. Buragichni ochib xavo chiqariladi. Buragich yopiladi.

9. Bemorni chap yonboshiga oyoklarini Chanoq-son va tizza bo'g'imlarida bukib, qorniga tortib yotishi so'raladi. Agar bemorning chap yonboshida yotishining iloji bo'lmasa xo'qnani bemor chalqancha yotganida o'tkaziladi.
10. Bemornig dumbalari tagiga kleyonkani tog'oragacha osilib turadigan kilib solinadi.
11. Chap qo'lning 1 va 2 - barmoqlari bilan dumbalarni kerib, o'ng qo'l bilan uchlikni extiyot bo'lib orqa chiqaruv teshigiga kiritiladi. Bunda uchlikni avval Qindikka yo'naltirib 3-4 sm, so'ng umurtqa pog'onasiga parallel yo'naltirib 8-10 sm gacha kiritiladi.
12. Buragichni ochib, suv maromi tartibga solinadi. Bu vaktida bemordan o'zini bo'sh qo'yib, qorni bilan nafas olishi so'raladi.
13. Suvni yuborib bo'lgach, buragichni yopib, uchlik chikariladi.
14. Sistemadan ajratib, darxol zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.
15. Bemordan 5-10 dakika yotib, suvni ichaklarida ushlashni taklif kilinadi.
16. Bemorni hojatxonagacha kuzatiladi yoki sudno beriladi. Agar bemor yotgan holda bo'lsa, iloji bo'lsa krovatning bosh tarafini 45-60⁰ gacha ko'tariladi.
17. Sudnoni olib, axlatni ko'zdan kechirib, ustini kleyonka bilan yopiladi.
18. Bemor osti yuviladi.
19. Sistemani ajratib, zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.
20. Maxsus kiyim, kulkoplarni va fartukni yechib, zararsizlantiruvchi eritmaga buktiriladi.
21. Amaldagi buyruq asosida jihozlar zararsizlantiriladi.

Asoratlari:

1. To'g'ri ichakning jarohatlanishi.
2. Jihozlarni yetarli zararsizlantirmaslik ichak infeksiyasini tarqalishiga sabab bo'ladi.

Eslatma :

- Huqna qilganda suvning harorati qabziyat turiga bog'liq bo'ladi: atonik qabziyatda 12-20⁰S, spastik qabziyatda 37-42⁰S, qabziyatda 20⁰S bo'lishi kerak.
- Bemor spastik xarakterdagi og'riqqa shikoyat qilsa, og'riq to'xtaguncha muolajani to'xtatish kerak. Og'riq to'xtamasa shifokorga xabar qi linadi.

43.Yurak astmasida muolaja bajarish algoritmi. 1.Qulay xolat (bemor oyoqlari tushirilib yarim o'tirgan xolatda)yaratilib berilishi lozim.2.Barcha tor kiyimlar yechiladi.3.Xonaga toza xavo kiritiladi.4.Kislorod namlab beriladi. (30-45 min).5.Qo'l-oyoqlarga tasma tortiladi. (Pul's saqlangan bo'lishi shart).

44. O'pka shishida tez yordam ko'rsatish algoritmi.

1. Qulay xolati bosh tomoni ko'tarilgan xolda bo'lishi lozim.
2. Barcha tor kiyimlar yechiladi.
3. Xonaga toza xavo kiritiladi.

4. Yuqori nafas yoʻllaridagi shilimshiq moddalar elektrli yoki mexanik soʻrgʻich bilan soʻrib olinadi.
5. Kislorodni kattalarga 50-70% spirtidan oʻtkazib Bobrov apparatida 30-45 daqiqa beriladi, bolalarga 30% spirtidan oʻtkazilib 10-30 daqiqa beriladi.

45. Miokard infarktida tez yordam algoritmi .

1. Toʻgʻri yotqizilib, siquvchi kiyimlar yechiladi.
2. Yuqori nafas yoʻllari tozalanadi.
3. Mutlaqo tinchlik, yotishi, qimirlamasligi kerak.
4. Til ostiga nitroglitserin 1-2 tabletka yoki validol beriladi.
5. V/i morfin gidrokslorid 1%-1 ml. Bolalarga 1 yoshgacha man etiladi.

46.Kollapsda tez yordam algoritmi.

1. Bemor toʻgʻri yotqizilib, yoqalari yechiladi. Yuqori nafas yoʻllari tozalanadi. (protez, shilliq, balgʻam, ovqat qoldiqlari olib tashlanadi).
2. Oyoq-qoʻllariga isitgichlar qoʻyiladi.
3. Butun badani spirt bilan artiladi.
4. Qorni yengil uqalanadi.

47.Gipertoniya yordam koʻrsatish algoritmi.

1. Bemor zudlik bilan oʻtqiziladi yoki yarim yotgan xolatga keltiriladi.
2. Tinchlik yaratiladi.
3. Oyoq va qoʻllarga xantalli vannalar.
4. 150-100.mlcha qon olish mumQin.
5. Dibazol 0,5% - 10 ml v/i yoki 1,0 % li- 5 ml v/i.
6. Laziks 1% li - 2 ml m/o.

48. Gipoglikemik komada yordam koʻrsatish algoritmi.

- 1) Bemorni iloji boricha yotqizib, tinchlantirish kerak.
- 2) 1 stakan shirin choy va non beriladi.
- 3) Qand yoki konfet shimishga beriladi.
- 4) Bemor yiqilgan boʻlsa, jaroxatlar bogʻlanadi.
- 5) Bemor bexush boʻlsa 40 ml-40% glyukoza v/it.

49.Anafilaktik shokda yordam koʻrsatish algoritmi.

1. Organizmga allergen kirishini toʻxtatish lozim (antibiotiklar, venaga yuboriladigan, teriga surtiladigan, ichiladigan dorilarni toʻxtatish).
2. Agar zaxarli gazanda chaqqan boʻlsa yuqoriroqdan tasma tortiladi, gazanda chaqqan soxaga 0,1 % li 0,2- 1 ml adrenalin qilinadi.
3. Hidrokortizon 3-5ml m/o .
4. Kordiamin 2ml m/o.
5. Eufillin 2,4 % li -10 ml v/i seQin yuboriladi.
6. Suprastin 2%li 2 ml m/o.

50. Sunʼiy oʻpka ventilyatsiyasini “Ambu” qopchasi yordamida oʻtkazish.

1. Bemorga umumiy yondashish.

2. Nafas borligini aniqlash
3. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash; og'iz bo'shlig'i sanatsiyasi, boshini orqaga egish, pastki jag'ni oldinga surish, xavo o'tkazgichdan foydalanish.
4. Mos o'lchamdagi niqobni topib undan to'g'ri foydalanish. Ambu qopchasini ritmik siqish, ko'krak qafasini nazorat qilgan xolda.
5. Es xushi darajasi gemodinamika,
6. Mustakil nafas paydo bo'lishi monitoringi.

51.Nafas siqilganda yordam ko'rsatish algoritmi.

1. Xavf sababini aniqlash.
2. Xavo kelishini ta'minlash.
3. Shaxsiy muxofaza.
4. Agar shikastlangan xushsiz bo'lsa, nafas yo'llarini ochish va tozalash.
5. Nafas borligini aniqlash; ko'krak qafasi ekskursiyasi, o'pka auskul'tatsiyasi.
6. Agar shikastlangan nafas olmasa, tezda og'izdan –og'izga, og'izdan-burunga, AMBU qopchasi bilan sun'iy o'pka ventilyatsiyasini o'tkazish.

52.O'tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish algoritmi.

1. Bemorga umumiy yondashish.
2. O'tkir nafas yetishmovchiligi darajasini aniqlash.
3. Bemorning xolatini aniqlash.
4. Teri rangini aniqlash.
5. Puls va nafas sonini aniqlash.
6. O'pka auskultatsiyasini o'tkazish.
7. Nafas olish soni 1 min ichida 25-28 ta bo'lganda kislorodterapiya qo'llash.
8. Nafas olish soni 1 minutda 40 va undan ortganda sun'iy o'pka ventilyatsiyasini o'tkazish.

53. Kislorodoterapiya.

1. Bemorga umumiy yondashish va kislorodoterapiyaga ko'rsatmalarni aniqlash; gipoksemik, gemik, sirkulyator, to'qima gipoksiyasi.
2. Kislorodoterapiya usulini aniqlash; endonazal katetrlar, niqoblar, endotraxeal yoki traxeostomik nay yordamida kislorodoterapiya o'tkazish, Kislorodoterapiya berilayotgan xavoda doimiy konsentratsiyada, uzoq muddat va uzluksiz o'tkazilishi lozim.
3. Mustaqil nafas bo'lganda endonazal katetrlardan o'lchamiga muvofiq ravishda pastki burun yo'lga kiritish orqali qo'llaniladi (katetr o'lchami burun qanotlaridan quloq yostiqchasigacha bo'lgan masofa).
4. Mustaqil nafas bo'lmaganda niqoblar yordamida yuqori konsentratsiyadagi kislorod beriladi.

54.Cho'kishda shoshilinch yordam ko'rsatish.

1. Xavf mavjudligini aniqlash.

2. Cho'kkan insonni suvdan olib chiqib xavfsiz joyga olib o'tish.
3. Xushsiz xolatda bo'lsa, nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tozalash.
4. Xavo yo'llari o'tkazuvchanligini boshini orqaga bukish, pastki jag'ni oldinga chiqarish bilan ta'minlanadi.
5. Nafas borligini aniqlash.
6. Agar inson nafas olmayotgan bo'lsa, tezda og'izdan-og'izga sun'iy o'pka ventilyatsiyasi o'tkazish.
7. Nafas olishni boshlasa yonboshga yotqizish.

55. Yurak o'pka reanimatsiyasini o'tkazish algoritmi.

1. Bemorga umumiy yondashish, bemorni qattiq yuzaga yotqizish.
2. Nafas va uyqu arteriyasida puls borligini aniqlash.
3. Agar nafas va puls yo'q bo'lsa, zudlik bilan o'pka yurak reanimatsiyasini o'tkazish.
4. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi to'g'risida ishonch xosil qilish 2 marta sinama nafasi berish.
5. Agar nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilgan bo'lsa, o'tkazuvchanlikni boshni orqaga egish bilan ta'minlash.
6. Umurtqa pog'onasi bo'yin qismi travmasida pastki jag'ni oldinga siljitish.
7. Yurakni bilvosita massajini o'tkazishda kaft asosini xanjarsimon o'siqdan ikki barmoq yuqoriga qo'yiladi. Bunda qo'llar to'g'ri bo'lib, barmoqlar bemor tanasiga tegmasligi kerak.
8. Katta kishilarga yurak bilvosita massaji va sun'iy nafas nisbati 15:2.

56. Yuqori nafas yo'llarida yot jism bo'lganda GEYMLIX usulini qo'llash.

1. Bemorga umumiy yondashish.
2. Bemorga oyoqlarini yelka kengligida ochishni aytish.
3. bemorni qo'llar bilan quchoqlab olish va qo'llarni mushtum qilish.
4. Qo'llarni qorin devori o'rta chizig'i bo'yicha Qindik va xanjarsimon o'siq soxasida joylashtirish.
5. Qo'lni pastga va bosh yo'nalishi bo'yicha tepaga bosish.
6. Agarda bemor xushsiz xolatda bo'lsa, uni chalqanchasiga yotqizib, oyoqlarini ochamiz.
7. Xanjarsimon o'siq va Qindik orasi soxasiga kaft asosini ikkinchi qo'l ustiga qo'yiladi.
8. 5-10 marta bosh tomonga yo'naltirilgan itaruvchi xarakatlar bajariladi.
9. Og'iz bo'shlig'i sanatsiyasi.

57. Zaxarlanishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish.

1. Tashqi muxitni analiz qilgan xolda bemorga umumiy yondashishi.
2. Xushini xolatini tekshirish.
3. Gemodinamika va nafas olishini baxolash.
4. Agar zaxarlovchi moda og'iz orqali tushgan bo'lsa, kuydiruvchi zaxarlardan tashqari oshqozonni zondlash.
5. zond orqali surgi va aktivlashgan ko'mir tabletkalarini yuborish.

6. Tozalovchi xuqna.
7. Zaxarlovchi moddani aniqlash uchun analiz olish va jadallashtirilgan diurez.
8. Zaxarlovchi moddani aniqlagandan keyin antidot terapiY.
9. Kerak bo'lsa ekstrakorporal detoksikasiya usullarini qo'llash.

58. Elektrotravmada shoshilinch yordam algoritmi

1. Xalokat joyida elektr toki manbaini aniqlash.
2. Elektr toki ta'sirini to'xtatish.
3. Tokning kirish va chiqish teshiklarini topish.
4. Qon aylanishi va nafas to'xtaganda o'pka yurak reanimatsiyasi.
5. EKG- monitoring va intensiv terapiY.
6. Jaroxatlarga aseptik bog'lam.

59. "Og'izdan-og'izga" nafas berish metodikasi.

1. Bemorga umumiy yondashish.
2. Bemorni qattiq yuzaga yotqizish.
3. Ko'krak qafasini tekshirish.
4. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.
5. Boshini orqaga egish, bitta qo'lni peshonasiga ikkinchi qo'lni buyniga qo'yiladi, agar umurtqa pog'onasining bo'yin qismi jaroxatiga shubxa bo'lsa, daxani oldinga va pastki jag'ni yuqoriga chiqarish.
6. Katta va ko'rsatkich barmog'i bilan siqiladi,
7. Og'iz bilan bemorning og'zi maxkam yopiladi va bemorga nafas beriladi.
8. Ko'krak qafasi ekskursiyasi nazorat qilinadi.

Ўрта тиббиёт ва фармацевтика ходимлар малакасини ошириш ва ихтисослаштириш Республика Маркази Андижон филиали акушерлик фани ўқитувчиси Я.Х.Сатимованинг «Даволаш профилактика муассасаларида акушерлик ва гинекологик ёрдамни ташкил этиш» ўқув даври бўйича малака ошириш гуруҳлари учун тузган ишчи ўқув дастурига

Тақриз.

Мамлакатимизда Мустақиллик йилларида она ва болани ижтимоий ҳамда тиббий ҳимоя қилиш сифатини янада юксалтириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Бунда ўнлаб меъёрий-ҳуқуқий ва қонунчилик ҳужжатлари мустаҳкам асос бўлиб хизмат қилмоқда. Уш бу ишчи ўқув дастур оилавий поликлиникаларда , туғруқ комплексларида ишловчи акушеркалар(ҳамширалар, фельдшерлар)ни акушерлик ва гинекология фанидан чуқур билимларни эгаллаши мақсадида тузилган.

Ишчи дастурнинг мутахассислик модулида “ДПМларда акушерлик ва гинекологик ёрдам кўрсатиш” бўйича тегишли мавзулар кичик модул шаклида берилган.

Дастурда ЮНИСЕФ/ЖССТ кўмагида чоп этилган ўқув қўлланмалар, мақолалар, замонавий адабиётлар, Соғликни сақлаш вазирлиги томонидан чиқарилган буйруқлардан фойдаланилган. Дастурда репродуктив саломатлик ва “Бехатар оналик”масалалари, ҳомилани антенатал парвариш қилиш,ҳомиладор аёлнинг ҳаётига хавф солувчи белгиларни аниқлаш ва ёрдам бериш, туғруқда қўлланадиган янги технологиялар, туғруқ ва туғруқдан кейинги даврда акушерлик парвариши, туғруқ ва туғруқдан кейинги қон кетиш ва акушерлик ёрдамни кўрсатиш, янги туғилган соғлом ва бемор чақалоқларни замонавий парваришлаш, кўкрак сути билан боқиш, чақалоқлар реанимацияси, гинекологик беморларда ҳамширалик парваришини олиб бориш, бепуштлик, ҳайз цикли бузилиши, аёллар жинсий аъзолари хавфли ва хавфсиз ўсма касалликларида ҳамширалик парваришини олиб бориш мавзулари ўз аксини топган.Она ва бола соғлиғини сақлашда йўналтирилган ҳамширалик жараёнига, самарали перинатал ёрдамни ташкил этиш ва парвариш усулларига алоҳида эътибор қаратилган. Акушерлик ва гинекологик ёрдамга муҳтож беморларни замонавий ташхислаш, ёрдам кўрсатиш, ҳамшира ташхиси ва парвариши тўғрисида янги билимлар берилган.

Андижон Давлат Тиббиёт Олийгоҳи
акушерлик ва гинекология кафедраси
тиббиёт фанлари номзоди,доцент.

Д.А.Парпиева

ning imzosi tasdiqlan
Kodimlar bo'limi boshlig'i



Ўрта тиббиёт ва фармацевтика ходимлар малакасини ошириш ва ихтисослаштириш Республика Маркази Андижон филиали акушерлик фани ўқитувчиси Я.Х.Сатимованинг «Даволаш профилактика муассасаларида акушерлик ва гинекологик ёрдамни ташкил этиш» ўқув даври бўйича малака ошириш гуруҳлари учун тузган ишчи ўқув дастурига

Тақриз.

“Соғлом она-соғлом бола” оналар ва болалар соғлигини муҳофаза қилиш Миллий моделини, “Соғлом она-соғлом бола” Давлат дастурини амалга ошириш доирасида, республикамизда аҳолини репродуктив саломатлигини янада мустаҳкамлаш, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш соҳасида тиббий ёрдам кўрсатаётган ўрта тиббиёт ходимларини, жумладан акушеркаларни салоҳиятини кучайтириш хозирги замон давр талабидир.

“ДПМ ларда акушерлик ва гинекологик ёрдам кўрсатиш” ишчи ўқув дастури намунавий ўқув дастури асосида тузилган бўлиб, дастурнинг асосий мақсади: ўрта тиббиёт ходимлари (оилавий поликлиника, акушерлик ва гинекология бўлими акушеркалари, хамширалари, фельдшерлари) ни ҳар томонлама етук, мутахассисликлари бўйича етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишларига эришиш, улар фаолиятини янада такомиллаштириш, акушерлик ва гинекология фанидан янги назарий билимларни амалий кўникмалар орқали мустаҳкамлаш ва чуқур билимларни эгаллашга қаратилган.

Мутахассислик бўйича тегишли мавзулар модул шаклида берилган. Ҳар бир мавзу бўйича ўқув материаллари мавзунини тўлиқ ўзлаштириш ҳамда назарий ва амалий билимларни эгаллаш учун зарур бўлган ҳажмда тақдим этилган. Дастурда акушерлик малакавий тавсифномаси ва лавозим йўриқномаларига мувофиқ, лозим бўлган янги билимлар ва кўникмаларни (билиш керак, бажара олиши керак ва қайси амалий кўникмаларни ўзлаштириш лозим) етарли даражада ўзлаштиришга қаратилган меъёрий хужжат, стандарт ва миллий протоколлар асосида материаллар тақдим этилган.

Самарали перинатал ёрдамни ташкил этиш ва парвариш усулларига алоҳида эътибор қаратилган. Акушерлик ва гинекологик ёрдамга муҳтож беморларни замонавий ташхислаш, ёрдам кўрсатиш, хамшира ташхиси ва парвариши тўғрисида янги билимлар берилган. Шунингдек аёл ҳаётининг барча давларида ўтказиладиган тиббий патронаж асослари берилган.

Мазкур ишчи дастурни ўзлаштиришга тавсия этилган соатлар ҳажми жами: 144 соатдан иборат бўлиб, бундан 104 соати мутахассислик фанига, ундан 44 соати назарий ва 60 соати амалий дарсларга ажратилган. Ишчи ўқув дастур ўрта тиббиёт ходимлари ўз хоҳиши билан билимини кенгайтириш мақсадида мустақил ўзлаштирилиши (ёки мустақил курс сифатида) учун қўлланиши мумкин.

Андижон Давлат Тиббиёт Олийгоҳи
акушерлик ва гинекология кафедраси
тиббиёт фанлари номзоди, доцент.

Н.М. Ахмедова

